



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

AL-XORAZMIY NOMLI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGOYA VA SAN'AT FAKULTETI BITKAZUVCHISI

Tag'anov Hurmatbek Ravshanbekovichning

“Kuzgi manzara” mavzusidagi

MALAKAVIY- BITIRUV ISHI

Ta'lim yo'nalishi: “ Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi”

Bakalavr darajasini olish uchun

Urganch-2012

MUNDARIJA

Kirish	2-9
1 BOB. MANZARA JANRINING RIVOJLANISH TARIXI	
1.1. Rangtasvirning manzara janri haqida.....	10-12
1.2 . Rassomlar ijodida manzara janiining tutgan o`rni.....	13-17
2 BOB. MANZARA ISHLASHDAGI BA`ZI BIR O`ZIGA XOSLIKLAR	
1.1. Manzara kompozitsiyasi tuzush.....	18-24
2.2. Manzarani rangli tasvirlashda obraz, kolorit, fazo va kompozitsiyon ifodalilikning ahamiyati.....	25-28
2.3. Manzarani rangda tasvirlash jarayonining asosiy qonun qoidalari.....	29-34
2.4. Mavzu ustida izlanishlar va ish jarayoni.....	35-38
3 BOB. TASVIRIY SANAT DARSLARIDA TABIYAT MANZARASINI CHIZISH MASHG`ULOTLARINI TASHKIL ETISH	
3.1 Tasviriy san`at mashhulotlrida o`quvchilarga estetik tarbya berishda tabiyat manzarasini ishlashning ahamiyati.....	39-45
3.2 .Tabiyat manzarasini chizish mashhulotlarida qo`llaniladigan pedagogik tasvirlar va ulardan foydalanishning ahamiyati.....	46-55
Xulosa	56-57
Adabiyotlar ro`yxati.....	58-59

Kirish

Tabiat-barcha go`zallik va ulug`vorlikning asosi hisoblanadi. Tabiat o`zi bu nima? Tabiatni nima ekanligini tushunmay turib uning estetik mohiyatini bilib bo`lmaydi?

Tabiat tug`ilish, abadiy mavjudlikni va yaratuvchilikni bildiradi. Tabiat eng avvalo barcha narsalarning onasi hisoblanadi. Tabiatning sub`ekti, uning tarkibiy qismi va yaratilish mahsuli inson hisoblanadi. Inson tabiatning bir bo`lagi sifatida uning go`zalligini doimo kuylab kelgan. Tabiat va olamning yaralishi va go`zalligini turli-tuman afsonalarda kuylashgan.

Qadimgi afsonalarda dunyoni go`zalligi kuylangan va kartinalari yaratilgan. Afsonalarda yil fasllari, suv kuchi, yer va kuyosh, gullash va hosildorlik xudolari tasvirlangan. Tabiat bor go`zalligi bilan ko`rsatilgan.

VI asrdan boshlab antik davr faylasuflari tomonidan tabiat go`zalligining yaxlit nazariyasi yaratiladi. Aristotel birinchi bo`lib nafosat bilimlarini sistemalashtirib, go`zallik tushunchasiga asos soldi. Shu davrlardan buyon go`zallik inson tomonidan tasvirlab kelinadi. Bazida musiqa, raks va asosan tasviriy va amaliy sanatta o`z aksini topgan. Demak inson hayoti san`at bilan juda qadim zamonlardayoq bog`lanib kelgan. San`at uning mehnat jarayonining ajralmas qismi edi. Inson o`z badiiy asarlarida hayotda muhim, zurur deb bilgan narsalarnigina aks ettirgan.

San`atning barcha tur va shakllari orasida manzara rangtasviri tabiatni go`zalligini juda tulakonli ochib bera olgan. Rangtasvirning bu janrida bir paytning uzida rasm, obraz, perspektiva, havo, yoruglik va rang jamlanadi. Rangtasvirchilarning o`z oldiga qo`ygan vazifasi shundan iborat ediki, uz asarlarida tabiatni estetik mohiyatini tugri aks ettirishlari lozim edi.

Manzara rangtasviri tabiatni tabiiy go`zalligida tasvirlash uchun katta imkoniyatlarga ega.

Tasviriy sanatning eng muhim xususiyatlaridan biri shundaki, u hayotni aks ettiradi, dunyoni bilishda insonga yordam beradi, uni nafosat go`zalligi ruhida tarbiyalaydi.

Antik dunyo faylasuflari Platon va Aristotel tarbiyada san`at muhim rol o`ynashini tan olganlar. Aristotel yoshlarni san`atdan zavqlanishga ongli ravishda o`rgatish zarur, eng yaxshi jamiyatda har bir kishi san`at bilan shug`ullanishi lozim deb tahkidlagan.

Ma`naviyatni mahkam ushlab turuvchi vositalardan biri bu tasviriy san`atdir. Tasviriy san`at insonni estetik ruhda tarbiyalashda, ayniqsa badiiy jihatdan barkamol qilib tarbiyalashda katta ahamiyatga ega.

Shu nuqtai nazardan olib karaganda ushbu malakaviy-bitiruv ishimning mavzusi juda dolzarb deb hisoblayman.

Men boshlagan ushbu malakaviy-bitiruv ishimning mavzusi “Kuz manzarasi” deb nomlanadi.

M a v z u n i n g d o l z a r b l i g i.

Malakaviy-bitiruv ishimning dolzarbligi shundan iboratki, bu mavzu vatanimiz go`zalligini tasvirlash orqali yoshlarga istiqlol davrida shakllangan mavjud an`analarni va vatanparvarlik ruhini ularning qalbiga singdirish orqali ijodkor yoshlarni tarbiyalash zarurligidir.

-Tasviriy san`atning manzara janirining nazariy va amaliy asoslarini o`rganish jarayonini o`quvchilarda estetik did, estetik ong, badiiy tasavvur va tafakkurni tarkib toptirish, hamda rivojlantirishga yo`naltirish orqali ma`naviy barkamol avlod tarbiyasiga zamin yaratish

-Tasviriy san`at vositasida o`quvchilarning atrof –muhitdagi, san`atdagi go`zalliklarni ko`ra bilishga va ularga estetik munosabat bildirishga, san`atning ijtimoiy muxiyatini va ahamiyatini teran anglagan holda me`moriy yodgorliklarni, tasviriy, amaliy va dizayn san`ati asarlarini milliy iftihor, qadriyat sifatida e`tirof etish va muhofaza qilishga o`rgatish.

-O`quvchilarni tasviriy ,amaliy va dizayn san`ati, me`morchilikning o`ziga xos “tili”, ifodaviy obrazli vositalari bilan tanishtira borib, ulardagi tasviriy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, san`at bilan muntazam shug`ullanish ehtiyojini tarkib toptirish.

-Bolalarni san'at bilan muloqot jarayonida olgan taassurotlarini tasviriy va amaliy san'at, dizayn san'atining rangtasvir, qalamtasvir, haykaltaroshlik, amaliy-badiiy loyixalashtirish va boshqalar) turlarida ularga xos tasviriy-ifodaviy vositalar, qonuniyatlar asosida o'zlarining ijodiy faoliyatlarida qo'llay bilishga o'rgatish,

-Ijodiy-tasviriy faoliyatga moyilligi bor o'quvchilarning badiiy iste'dodlarini takomillashtirish, ularni badiiy kasb va hunarlarga yo'llash.

O'quvchilarda tasviriy san'atning o'ziga xos tomonlari haqidagi tasavvurlarini kengaytirish, tasviriy san'atning ifodaviy vositalari(hajm fazo chiziqli rang kompozitsiya)ni tushunish va undan tasviriy-ijodiy faoliyatlarda foydalana bilish malakalarini rivojlantirish kabilarni qamrab oladi. Shuningdek tasviriy san'at asarlari, ayniqsa, manzara san'ati orqali dunyoga falsafiy nuqtai-nazar bilan qarash, falsafiy mushohada yuritishni va shu orqali dunyoni o'rganishdir.

Ishning maqsad va vazifalari.

1. Rangtasvir sohasiga uning barcha tur va janrlariga oid bo'lgan barcha nazariy bilimlarga ega bo'lib, shu sohada ijod qilayotgan zamondosh rassomlarimizning ijodi bilan yaqindan tanishish.

2. O'quvchilarimga faqatgina Xorazm manzaralarinigina emas, balki O'zbekistonimizning boshqa viloyatlaridagi xalqlarining yashash tarzini va o'ziga xos bo'lgan go'zal manzaralari haqida qiziqarli qilib bayon qilib berish va bilimlarimni o'quvchilarimga yetkazish.

3. Tabiatdagi ro'y berayotgan hodisalarni ko'ra bilish va idrok etishga hamda ulardan olgan his tuyg'u va tushunchalarni hayotga tadbiq etish.

4. Tasviriy malakalarni shakllantirish.

5. Barcha olgan bilim va malakalarim asosida kompozitsiya tuzish va uni amalda bajarish.

Ishning yangiligi.

Ishning yangiligi shundaki men o'z malakaviy ishimni hozirda ijod qilayotgan rassomlarimiz ijodini o'rganib yangi bir yo'nalishda yangicha o'ziga

xos kuz manzarasini yaratishdir. Bunda kuz faslining betakror tabiyati musaffo havosini ranglar jilosini yangicha stilda yartishdir.

Ishning nazariy va amaliy ahamiyati.

Bu mavzuning nazariy va amaliy ahamiyati shunda ko`rinadiki, unda rangtasvirda tabiat manzarasini shakl konstruktsiyasi nisbatlarni aniqlash, xarakter topish, rangda va tusda ifodalashni o`rganishdir va uning rang xarakteristikasi, hamda atrof muhit bilan yoritilish holatlarinn haqqoniy aks ettirish jarayoni ko`rib chiqiladi.

Malakaviy-bitiruv ishimni bajarish jarayonida bir qancha manba va adabiyotlardan foydalandim.

Inson borki shu yerda san`at mavjuddir. Insonlar o`z qiziqishlarini shu san`at orqali har xil soha bo`yicha ko`rsatishlari mumkin. Men ham o`z qiziqishimni san`at orqali ko`rsatishga harakat qildim.

Men tanlagan ushbu mavzu o`zimning ijodiy faoliyatimga juda yaqin. Men shu mavzuni tanlash orqali faqatgina mavzuning sir-asrorlarini yoritib beribgina qolmay, balki o`zimga nisbatan bo`lgan ijobiy tahsirni sezdim. Shu baxonada bilim darajamni boyitib oldim.

Shu o`rinda aytib o`tishim lozimki, rangtasvir san`atining fazilatlari ham o`ziga xos bo`lib, ularni boshqa hech bir narsa bilan almashtirib bo`lmaydi. Rantasvir asarlari ayni choqda ham badiiy va tarixiy ahamiyatga ega bo`ladi. Chunki mahlum bir sharoitda yaratilgan har bir tasviriy san`at asari tarixning bir bo`lagini aks ettiradi.

Mening o`qituvchilik faoliyatimda ham rangtasvir san`atining o`quvchilarga bo`lgan ijobiy tahsirini yaqqol sezib turibman. Chunki rangtasvir asarlari o`quvchi yoshlarning ma`naviy olamini boyitadi, badiiy didini shakllantiradi, ruhiyatini tarbiyalaydi. U yoshlarni badiiy, ahloqiy umuminsoniy tarbiyalab, ularning milliy dunyoqarashini shakllantirishda hamda madaniy darajasini yuksaltirishda eng zarur manbalardan biri hisoblanadi.

Prezidentimiz Islom Karimovning «Yuksak ma`naviyat yengilmas kuch» nomli asarida ham bu masalaga alohida ehtibor qaratilgan.

«Yana bir dolzarb vazifa-o`sb kelayotgan avlodga, uning ma`naviy tarbiyasiga nihoyatda katta javobgarlik hissi bilan yondoshish masalasi. Nega deganda, yoshlar halq ma`naviyatining munosib egalaridir. Shuning uchun har bir o`gil-qizimiz dastlabki kadamlaridan boshlab madaniy boyliklarimizdan bahramand bo`lishi kerak.»¹

Ushbu malakaviy-bitiruv ishimning eng asosiy maqsadi esa hozirgi davrda muhim hisoblanagan komil insonni tarbiyalash muammosini o`z soham bo`yicha o`rganib, unga ijodiy yondashish va ushbu fikrlarimga mos tarzda san`at asari yaratishdir.

Malakaviy-bitiruv ishimning rejasi kirish, asosiy qism va xulosa qismidan iborat. Asosiy qism o`z ichiga beshta bo`limni olgan. Xulosa qismi foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati va eskizlardan iborat.

Malakaviy bitiruv ishimni bajarish jarayonida bir qancha manba va adabiyotlardan foydalandim.

Malakaviy-bitiruv ishimning nazariy qismini yoritishda Prezidentimiz Islom Karimovning «Yuksak ma`naviyat yengilmas kuch» nomli asaridan foydalandim. Bu kitobda ma`naviyatning mahno-mazmuni, uning inson va jamiyat hayotidagi urni va ahamiyati, bu serqirra tushunchaning nazariy va amaliy tomonlari har tomonlama keng qamrovli fikr va xulosalar orqali tahlil etiladi. Ayni paytda istiqlol yillarida yurtimizda milliy ma`naviyatimizni tiklash, uni zamon talablari asosida rivojlantirish bo`yicha amalga oshirilayotgan ulkan ishlar, bu borada oldimizda turgan maqsad va vazifalar haqida atroflicha fikr yuritiladi. Shuningdek, umumiy o`rta tahlimning davlat tahlim standarti va oquv dasturidan foydalandim. Bu standart va o`quv dasturidan tasviriy san`at ta`limining maqsadi, mazmuni va asosiy vazifalarini mukammal o`rganib chiqdim. Bu ma`lumotlar O`zbekiston Respublikasi xalq tahlimi vazirligining 6-maxsus sonda berilgan axborotnomasidan olindi.² 1998

¹ Islom Karimov .Yuksak mahnaviyat yengilmas kuch.-Toshkent.:2008 80-bet

2.Umumiy urta tahlimning davlat tahlim standarti va ukuv dasturi.-T., 1999.6-maxsus son.

yil Toshkentda nashr qilingan «Barkamol avlod orzusi» nomli kitobda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni amalga oshirish borasidagi publitsistik mulohazalar berilgan. Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning tahlim- tarbiya tizimini tubdan isloh qilish borasidagi fikr-mulohazalari berilgan.³

Raxim Xasanovning “Maktabda tasviriy san`atni o`qitish metodikasi” nomli o`quv ma`lumotsida maktab ukituvchilari uchun tasviriy san`at o`qitish metodikasiga oid nazariy ma`lumotlar va metodik ko`rsatmalar berilgan. Shu muallifning “Tasviriy san`atdan davlat tahlim standartlarini amaliyotga joriy etish” kitobida tasviriy san`atdan Davlat tahlim standartidan ish jarayonida qanday foydalanish yo`llari ko`rsatib berilgan. Bu kitob tasviriy san`at o`qituvchilari uchun zarur manbalardan biri hisoblanadi. “O`zbekiston san`ati” kitobidan men O`zbekistonning mustaqillik yillaridagi, ya`ni 1991-2001 yillardagi san`ati to`grisida juda ko`p ma`lumotlr oldim. Bu kitobda faqat tasviriy san`atgina emas, balki san`atning boshqa sohalariga oid ham ko`pgina ma`lumotlar berilgan.

Uil`yam Xogartning «Analiz krasoti » nomli traktati men uchun tasviriy sanghatning nazariy asoslarini mukammal urganishda asosiy manbalardan biri buldi. Bu kitobda tasviriy san`atdagi kompozitsiya, yoruglik, soya va bo`yoqlar, kattaliklar, ritm, harakat haqida to`lik ma`lumotlar berilgan.⁴

Koshel .P ning “Entsiklopedicheskiy slovarg' xudojnika” nomli kitobida tasviriy san`at nazariyasiga oid zarur ma`lumotlar juda qiziqarli tarzda bayon etgan.⁵ Beschastnov N.Pning “Jivopisg'” nomli kitobida rangtasvirning nazariy asoslari, uning texnikasi va texnologiyasiga oid barcha zurur malumotlar

³ Barkamol avlod orzusi. Toshkent., 1998.

⁴ Uilg'yam Xogart «Analiz krasotq ». iskusstvo., 1987.

⁵ P. Koshel Entsiklopedicheskiy slovarg' xudojnika. Moskva 2000.

to'plangan. Bu kitobda akvarelg' texnikasi ham keng yoritilgan va zarur illyustratsiyalar bilan boyitilgan.⁶

Egamov. H. Bo'yoqlar bilan ishlash. Mazkur ma'lumotda tasviriy san'atda rangshunoslik, ranglarning turlari, ularning qo'llanilish sohalari kabi materiallar keng yoritilgan.

Ushbu metodik ma'lumotsi maktab tasviriy san'at to'garaklariga va xalq san'atining ajoyib turlaridan biri bo'lgan naqqoshlik san'atiga qiziquvchilar uchun ham mo'ljallangan.

E.V.Shoroxovning "Osnovi kompozitsii" nomli ma'lumotsida tasviriy san'atda kompozitsion faoliyat asoslariga keng va juda chuqur to'xtalib utgan. Men bu qo'llanma orqali kompozitsiyaning qonunlar va qoidalari, vositalari va priyomlarini chuqur o'rganib oldim. Bu qo'llanma badiiy o'quv yurtlari talabalari bilan birga, boshqa san'at ihlosmandlari uchun ham juda qiziqarli bo'lishi mumkin.⁷ M. Nabievning "Rangshunoslik va rangtasvir texnologiyasi" nomli o'quv ma'lumotsida rangshunoslik, rangning insonga ruhiy tahsiri va rangtasvir texnologiyasi haqidagi bir qancha qimmatli ma'lumotlarga ega bo'ldim. Bu qo'llanmada rangtasvir materiallari, asbob uskunalari va kerak yaroqlari haqida ham to'liq ma'lumotga ega bo'lish mumkin. G'.Abdurahmonovning «Rangtasvir va kompozitsiyadan metodik tavsiyalar» nomli qo'llanmasida esa rangtasvir ishlash texnikasi va texnologiyasini chuqur o'rganib chikish mumkin. Bu qo'llanma orqali men uz malakaviy-bitiruv ishimni nazariy qismini yoritishda va amaliy ish jarayonini bajarishda keng foydalandim.

N.N Rostovtsevning "Risunok.Jivopisg'.Kompozitsiya" nomli kitobida tasviriy san'at namoyondalarining rangtasvir, qalamtasvir va kompozitsiya haqidagi fikr-mulohazalari yoritilgan. Bu kitobda tasviriy san'atning nozik, har bir musavvirga xos bo'lgan sirlari qiziqarli bayon etilgan.⁸

⁶ N.P. Beschastnov I.dr "Jivopisg'" Moskva, "Vlados"-2001.

⁷ Egamov X. Bo'yoqlar bilan ishlash. T. «O'qituvchi» 1990.

⁸ Rostovtsev N.N. "Risunok. Jivopis. Kompozitsiya. Moskva 1989

Shu bilan birga men O`zbekiston Badiiy Akademiyasining “San`at” jurnali ma`lumotlaridan foydalandim.

Shu bilan birga men tasviriy san`at sohasiga oid ma`lumotlarni internet sahifalaridan ham oldim.

1.W.W.W.jivopis.ru.

2.W.W.W.artmuzeum.ru.

1 BOB . MANZARA JANRINING RIVOJLANISH TARIXI

1.1. Rangtasvirning manzara janri haqida.

Manzara- tasviriy san'atning janrlaridan biri bo`lib, uning predmeti tabiat va landshaft hisoblanadi. Bu janrda yaratilgan asarlarga ham manzara deyiladi.

Manzara dastgoxli rangtasvir va grafikaning an'anaviy janri hisoblanadi. Manzara motivining xarakteridan kelib chiqqan holda manzarani qishloq, shahar (shuningdek me'moriy manzara) sanoat manzarasiga bo'lish mumkin. Shuningdek dengiz tasviri-marina janrini ham manzaraga kiritamiz.

Manzarachi musavvirlar o'z asarlarida ifodalangan obrazlar orqali tabiatni sevishtga, e'zozlashga va bu go'zalliklardan zavqlanishga chorlaydilar.

Manzara janrida faqatgina tabiat go'zalligini namoyish qilibgina qolmasdan, turli hoya va fikrlarni ham ilgari suradi. Ijodkor musavvir doimo tabiatni sinchkovlik bilan o'rganmohi va tafakkurini o'stirib bormohi lozim.

Manzara ustida ish boshlar ekansiz, tasvirga olmoqchi bo'lgan tabiatning o'sha qismi holatini yaqqol his qilmog'ingiz zarur. Manzaraga tushayotgan yoruhlikning to'g'ri aks ettirilishi, uni bir qadar jonlantirib, tahsirchanligini oshiradi. Manzarada fazoni idrok qilishning bu xususiyatlari bois, u planlar deb yuritiluvchi bo'laklarga ajratiladi. Odatda manzaraning uch plani belgilanadi, biroq u kompozitsiyaning tuzilishiga qarab, bundan ko'proq yoki kamroq ham bo'lishi mumkin.

Ranglar birinchi planda eng to'q, ikkinchi planda ochroq rangga kirib, oqish tus oladi va uchinchi planda uzoqliklar xavo rangga aylana boradi. Manzara janrida asar yaratishda xavo perspektivasiga amal qila olishni bilish ham muhimdir. Chunki bu ham manzara kompozitsiyasining asosiy vositalaridan biridir.

Tabiat o'zining boy ranggi va o'zining poyonsiz tuslari bilan bizni lol qoldiradi. Bu rang-barangliklar manzaraga xos xususiyatlarga ega bo'lgan rangga umumlashadi va koloritni belgilab beradi. Kolorit manzarada boshqa janr asarlariga nisbatan muhimroq ahamiyat kasb etadi, kompozitsiyaning asosiy hoyasini yoritib beruvchi vositalardan biridir. Bizga ma'limki manzara janrida asar yaratishdan oldin, avvalo bir qancha etud ishlari bajariladi. Etud ishlashda katta ahamiyatga ega bo'lgan suvbo'yoq surtmalaridan keng foydalanish mumkin.

Rang qatlamlarining tabiiy notekisligi, bo'yoqning tasvir shakliga mos ravishda oqib yoyilishi, suvbo'yoq go'zalligini yanada ko'proq namayon qiladi. Quriy boshlagan rang qatlami bo'ylab," quruq"mo'yqalam usulida chiziqlar yuritib, shakl ma'nadorligini yanada oshirish mumkin. Etudda fazoni bir bo'yoq ranggini ikkinchi rangga qo'yib yuborish yo'li bilan tasvirlash mumkin. Bunda ranglarning bir-biri bilan nozik birikuvlari, uzluksiz tekis kirishuvlarni keltirib chiqaradi.

To'q rang bilan engil surkama jilolar yordamida etyudning rang echimi keltirib chiqariladi. Ranlardan to'g'ri foydalana olish ham tasviriy san'atda manzara ishlashda qo'llaniladigan asosiy vositalardan biridir. Agar etud ma'nosi muhim mavzuga mo'ljallangan bo'lsa, tasvirni" quruq"yordamida aniqlashtirish, biror joyini kontrastlashtirish, nimanidir kuchaytirish va nimadandir voz kechish mumkin.

Tabiat obrazi ta'sirchanligini oshirish, uning aniq holatini ifoda etish maqsadida ishni kontrastli yoki mayin, iliq-yoki sovuq, ochroq yoki to'qroq, yaqqol yoki umumlashgan tarzda bajarish mumkin. Jonli tabiatni his qilmish, uning hayot ko'rkamligini ilhay olish, shuningdek qiziquvchanlik har bir etud echimiga mezon bo'ladi.

Ranglar birinchi planda eng to'q, ikkinchi planda ochroq rangga kirib, oqish tus oladi va uchinchi planda uzoqliklar havo rangga aylana boradi. Manzara janrida asar yaratishda havo perspektivasiga amal qila olishni bilish ham muhimdir. Chunki bu ham manzara kompozitsiyasining asosiy vositalaridan biridir.

Aslini olganda rangtasvir o'zida ichki kayfiyat, rangtasvir bilan shugulanish istagi esa, kartina haqidagi tiniq tasavvur va kontseptsiyani aks ettiradi. Rangtasvir bu tasviriy va masofaviy shakllanuvchi ish hisoblanadi. Bu jarayon ko'p vaqtni talab etib, u rassomning birinchi nigox tashlashidayoq boshlanadi.

Rang tasvirni hajmli ob'ektlar bilan ishlansada, ularni tekislikda joylashtiradi. Kartina tekisligining ikki o'lchamliligi rangtasvirda masofani

tasvirlashning talablariga qarshi turadi. Aslida kartina tekisligida hamma narsa tekis. Rassom qo'ygan yalpoq shakllar, bo'yoqlarni tomoshabin masofaviy o'zaro aloqadorlikda ko'radi. Haqiqatda esa kartinaning oldingi ham, orka plani ham yo'q, tasvirlanayotgan kartinaning real masofasi kartina tekisligida yotadi. Kartinada faqat shakl va rang mavjud. Agar tasvirlar kartinada naturadagidek real tasvirlangan bo'lsa, demak, eng ishonchli illyuziya yaratilgan. Shu bilan birga shuni aytib o'tish lozimki, turli davrlarda yashab ijod etgan rassomlar kartinadagi tekislik va masofani turlicha talqin etishgan

Chunonchi tabiat xar qachon ijodiy izlanishlar, go'zallikni xis qilib didni oshirish man'bai bo'lib kelgan. O'rol Tansiqboev yaratgan manzaraasarlari, nafaqat O'zbekistonda balki jaxon manzara san'ati durdonalari katoroidan o'rin olgan.

1.2. Rassomlar ijodida manzara janrining tutgan o'rni.

Inson tabiat manzarasini juda qadim zamonlardan tasvirley boshlagan. Manzara elementlarini neolit davridan qadimgi Sharq mamlakatlari, ayniqsa qadimgi Misr va qadimgi Gretsiya san'atida uchratish mumkin.

O`rta asrlarda maqbaralar, saroylar, boylarning uylari manzara motivlari bilan bezatilgan. Manzaralar ko`pincha ikona va miniatyuralarda masofani shartli ko`rsatish uchun xizmat qilgan.

Mustaqil janr sifatida manzara XVII asrda shakllangan. Uni golland rangtasvirchilari yaratishgan. XVI asrdayoq rassomlar naturani urgana boshlashgan. (Niderlandiyalik P.Breygel). XVII-XVIII asrlarda manzara janri gullab-yashnadi. (Flandriyalik P.Rubens, Gollandiyadan Rembrandt va I.Reysdal, Frantsiyadan N.Pusin va K.Lorrin). Havo perspektivasi yaratildi. XIX asrga kelib manzara janri ustalarining ijodini (Frantsiyadan K.Koro, Rossiyadan A.A. Ivanov, A.Savrasov, F.Vasilev, I.Shishkin, I.Levitan, V.Serov) Impressionistlar (Frantsiyadan E.Mane, K.Mone, O.Renuar, Rossiyadan K.Korovin, I.Grabar) davom ettirdilar va yoruhlik, havo muhitini o`zgaruvchanligi, tabiatning turli holatlarini va bo`yoq jilvalarining boyligini bo`yoqlar yordamida berish mumkinligini kashf qildilar.

Buyuk rassom Rembrandt o`zining rangtasvir asarlarida yoruhlikni juda muvaffaqiyatli qo`llagan. Uning kartinalari hamma vaqt ichki yoruhlik bilan yoritilgan. Unda tasvirlangan oddiy odamlar xuddi kartinadan nur taralayotganga o`xshab ko`rinadi. Rassomning buyukligi uning insoniyligidadir. U o`zining mo`yqalami bilan yoruhlik olib keladi. Rembrandt asarlaridagi yoruhlik inson qalbini ko`rishga yordam beradi.

XIX asr oxiri - XX asrda yirik rassomlar (Frantsiyadan P.Sezann, P.Gogen, Van Gog, A.Matiss, Rossiyadan A.Kuindji, N.Rerix, N. Крымов, Armanistondan M. Saren) manzara rangtasvirining emotsional, assotsiativ sifatlarini kengaytirdilar. Shuningdek manzara an'analarini A.Рылов, K.Yuon, A.Ostroumova- Lebedeva, A.Kuprin, P.Konchalovskiy va boshqalar davom ettirdilar.

Mustaqil janr sifatida manzara janri Xitoyda VI asrlardayoq kelib chikkan. Xitoy rassomlarining manzara asarlari tush bilan ipak matoga chizilgan. U juda chuqur falsafiy mazmunga ega bo`lib, xuddi cheksiz masofa, abadiy yangilanib

turuvchi tabiatni ko'rsatayotgandek tuyuladi. Rasmlarda toh panoramasi, suvli ko'l va daryolar tuman tasvirlangan.

Manzaralarda odamlar komatlari va yuksak ma'naviy sifatlarni ko'klarga ko'taruvchi simbolik motivlar (tog' sosnasi, bambuk, yovvoyi olxo'ri) tasvirlangan. Xitoy rangtasviri asosida yapon manzarasi chuqur grafik tasvirlarga ega. (K. Xokusay).

Manzara janri faqatgina tabiatning turli fasllardagi turli-tumanligi va go'zalligi, uning quyosh va oy yoruhligidagi ko'rinishini tasvirlabgina qolmay, balki hissiyot va kayfiyatni tasvirlaydi. K.Koro, Van Gog, P.Sezann manzaralarida real tabiat tasvirlangani bilan, ularda eng asosiysi rassomning shaxsiy hissiyotlari berilgan bo'ladi. Rassom faqatgina naturani ko'chirmaydi, balki o'zining ichki holatini rangtasvirda beradi, shuning uchun har bir rassomning o'zi sevgan rang munosabatlari, priyomlari mavjuddir.

Masalan I.Levitanning manzaralarini ko'pincha "Kayfiyat manzarasi" deb atashadi. Uning kartinalarida kuvonch, tinchlik, ham-qayhu holati va o'zgaruvchan kayfiyat o'z aksini topgan. Shuning uchun ham rassom predmetlarning hajmli shaklini rang dohlari orqali va detallarni to'liq ishlamasdan, umumlashgan holatda beradi. M.Levitan tomonidan 1895 yilda yaratilgan "Mart" va "Oltin ko'z" asarlari xuddi shunday ishlangan va bu asarlar rus lirik manzarasi rivojlanishida eng yuqori nuqta hisoblanadi.

Rus rassomi M.Shishkin o'z asarlarida rus tabiatining umumlashgan epik obrazini yaratdi va rus manzarasi chuqur mazmunli va demoqratik san'at darajasiga ko'tarildi. ("Jo'xorizor"1878 y,). Shishkin polotnolarining kuchi manzarani fotografik aniqlikda olinishida emas, balki asarlarining chuqur mazmunga ega ekanligidadir.

Manzara janrida tabiat ko'rinishi, fasl, vaqt va rassomning maqsadi ifoda qilinadi. Undan tashqari, manzarada chiziladigan narsalar orasidagi masofa, narsalar orasidagi o'lchov nisbatlari va ranglarning bir-biriga bo'lgan munosabatlari tasvirlanadi.

Levitanning "Oltin kuz" asarini tahlil qilib ko`raylik. Rassom kuz ko`rinishini juda mohirona ifodalagan. Suvda osmondagi bulutlar aks etmoqda. Chap tomondagi tik sohilda oltindek to`q qizil rangli oq qayinlar soyalarini yerga yoyib, qaddini rostlab mahrur turibdi. Taglarida oltin barglar to`shalgan. Uzoqda ufqqa tomon cho`zilib ketgan buhdoyzor, o`tloqlar, daraxtlar, quyoshli kun, lekin salqin havo sezilib turadi.

Rassom O'.Tansiqboyevning "Jonajon o`lka" nomli asarida vatanimizning ajoyib xushmanzara tabiati tasvirlanadi. Ko`z o`ngimizda uzoqlarga cho`zilib ketgan qorli tohlar etagida gul terayotgan bolalar, hayot kaynagan kishloq va kishilar mehnati namoyon bo`ladi. Ko`m-ko`k osmonda porlagan sahiy quyosh jozibali manzarani o`zining hayotbaxsh nurlari bilan yoritib turibdi.

"Rangtasvir — tasvirlanayotgan kartinadagi barcha bo`laklar orasidagi munosabatlarni, ularning yorug`lik kuchini va har bir bo`laklarni o`zaro taqqoslash natijasida, bo`yoqlar va nozik farqlar kuchini uzoq vaqt kuzatish orqali borliqni to`laqonli ifodalash mumkin" — deb aytgan edi K.F. Yuon.

Manzara etyudlarida, masalan, osmon va suvni tasvirlashda asosan ranglarning och to`qligi va to`yinganligi orqali munosabatlarni ko`rsatishga erishiladi. Turli tuman boshqa faoliyatlarda (portret, natyurmortda) tus va ranglar kuchining aniq munosabati haqqoniy tus munosabatlar qurilishini aniqlaydi.

Ranglarning tabiatda qanday hosil bo`lishi va tarqalishi muammosi qadimdan olim va rassomlarning diqqatini tortgan.

Mashhur olimlar I.Ng'yuton, M.Lomonosov, Gelg'mgolg'tslar ranglarning mohiyatini ilmiy asosda tekshirganlar. M.V. Lomonosov fanda birinchi bo`lib asosiy ranglarni kashf etgan. Isaak Ng'yuton qator tajribalar o`tkazib, oq yorug`likni ko`p rangli ekanligini isbotlagan. Ekranda spektr ranglarini hosil qilgan. Buning uchun Ng'yuton Quyosh nurini qora pardaning kichik tirqishidan o`tkazib uning yo`liga uch qirrali prizma qo`ygan, natijada ekranda har xil ranglardan iborat keng yorug`lik yig`indisi hosil bo`lgan. Ekranda

spektr ranglari paydo bo`lib, ular quyidagicha joylashgan: qizil, sariq, zarg`aldoq, yashil, zangori, havo rang va binafsha ranglar.

Ng'yuton ranglarni fizika fani nuqtai nazaridan o`rgangan bo`lsa, nemis shoiri va san`atshunosi I.V. Gyoteni ranglarning kishi organizmiga ko`rsatadigan tahsiri ko`proq qiziqtirgan. U "Ranglar haqidagi ta`limot" nomli asarida ranglarni iliq va sovuq tuslarga ajratgan. Iliq (sarg`ish, qizil) ranglar kishida kayfichog`lik tuyg`usini, sovuq (havorang, yashil) ranglar esa mahyuslik tuyg`usini uyg`otishi haqida yozgan.

XIX asrda nemis tabiatshunos olimi G.L. Gelg`mgolg`ts rangshunoslik nazariyasida muhim yangilik yaratdi. Ko`p yillik tajribalar asosida xromatik ranglarning uchta asosiy alomati — rang tusi, rangning och-to`qligi va to`yinganligi asosida turkumlash zarurligini ko`rsatdi.

Ilmiy izlanishlar va amaliyot jarayonida qator qonun qoida ishlab chiqilgan bo`lib, talaba o`zining o`quv jarayonida va ijodiy ishida ularga amal qilishi shart.

Tabiatdagi ranglar o`z xususiyatiga ko`ra ikki turga: axromatik (rangsiz) va xromatik (rangli) xillarga bo`linadi.

Axromatik ranglarga oq, kulrang va qora ranglar kiradi. Boshqa ranglar esa xromatik ranglarni tashkil qiladi. Ular o`zaro aralashtiril-ganda esa yana bir qancha tusdagi ranglarni hosil qiladi. Biror xromatik rangga ochroq kulrang qo`shsak uning jozibaliligi pasayib, nursizlanadi. Bu hol rangning kam to`yinganligidan, ya`ni uning tarkibida bo`yoqning kamayganligidan darak beradi. Demak, rangning to`yinganligi yoki to`yinmaganligi deganda kul rangga nisbatan rangdorlik darajasi, tozaligini tushunish kerak.

Rang doirasi ikki teng bo`lakka bo`linsa, birinchi yarmida qizil, zarg`aldoq, sarg`ish, sariq ranglar, ikkinchi yarmida esa havo rang, zangori, ko`k, binafsha ranglar joylashadi. Doiraning birinchi yarmidagilar iliq ranglar, ikkinchi yarmidagi esa sovuq ranglardir. Bunday nomlanishga sabab qizil, sariq, zarg`aldoq ranglar olovni, qizigan temirni, cho`g`ni eslatsa, havo rang, zangori, yashillar esa muzni, suvning rangini eslatadi.

Ikkita spektr rangi ustma-ust tushirilsa, ranglar bir-biriga qo`shilib murakkab rang hosil bo`ladi. Qizil rang, havo rang va binafsha ranglar bilan qo`shilganda chiroyli tushdagi pushti, to`q qizil, sapsar ranglarni hosil qiladi. Qo`shilganda oq rang beradigan spektrli ranglar qo`shimcha yoki to`ldiruvchi ranglar deyiladi. Chunki, ular oq rang hosil bo`lgunga qadar bir-birini to`ldiradi. Bunday ranglarga sariq, havo rang, qizil, zangori, yashil va binafsha ranglar kiradi.

2 BOB. MANZARA ISHLASHDAGI BAZI BIR O`ZIGA XOSLIKLAR

2.1. Manzara kompozitsiyasi tuzush

Tasviriy san'atda manzara kompozitsiya asarlarining fikriy- hoyaviy mazmunini juda aniq va ishonarli qilib berish zarurligi bilan bog'liqdir. Kompozitsiyaning asosiy maqsadi - badiiy obraz yaratishdan iboratdir. Turli davrlar va turli - tuman yo'nalishlarda yaratilgan kartinalar o'zining aniq kompozitsion tuzilishiga ko'ra juda yaxshi ta'ssurot qoldiradi.

Shunday qilib, manzara kompozitsiyaning tugallangan yaxlitligini aniqlab beruvchi quyidagi sharoitlarni ajratib ko'rsatish mumkin: asarning biror-bir qismi uning yaxlitligiga zarar yetkazmasdan o'rin almashtirishi mumkin emas; biror-bir yangi element yaxlitlikka zarar yetkazmasdan qo'shilishi mumkin emas.

Shuning uchun ham namuna sifatida turli yo'nalishlarda yaratilgan asar olinganligi bejiz emas. Tugallangan asarga o'zgarish kiritish zarurati tuhilmasa, demak asar kompozitsiyasi juda to'g'ri qurilgan hisoblanadi.

Kompozitsiya turli qismlarni biron-bir fikriy - hoyaviy mazmunga moslab tuzish, biriktirish va joylashtirishdir. Tasviriy san'atdagi kompozitsiya - bu badiiy asarni uning mazmuni, xarakterli va maqsadiga asosan tuzishdan iboratdir.

"Kompozitsiya" so'zi tasviriy san'atda termin sifatida Uyg'onish davridan boshlab ishlatilib kelinadi.

Asarni tushunish va uni qabul qilish uni kompozitsiyasiga bog'liq bo'ladi. Badiiy faoliyatda asar yaratish jarayonini kompozitsiya tuzish deb atash mumkin.

Kompozitsiya xuddi daraxt tanasiga o'xshab tasviriy shaklning ildizi va shoxlarini organik bohlaydi, uning elemnetlarini bir-biriga bo'sundirib beradi. Demak, tasvirlash bu qismlar orasida munosabat o'rnatish, ularni bir butun qilib bohlash va umumlashtirishdir. Shu bilan birga kompozitsiya asarda qo'llanilgan rasm, rang va syujetni birlashtirib, ularning mazmun va mohiyatini ochib beradi. Shuningdek kompozitsiya tasviriy savodxonlikning eng asosiy elementini belgilaydi.

Tasviriy san'atda mustaqil ijod aniq bilimlar asosida paydo bo`ladi. Asrlar davomida rassomlar juda ham ta'sirchan bo`lgan kompozitsiya sxemalarini izlashgan. Shu tajribalardan ma'lumki tasvirdagi eng muhim syujetning elementlari tasodifan joylashmaydi, balki o`ylab tuziladi.

Unda oddiy geometrik figuralar (uchburchak, piramida, aylana, aval, kvadrat, to`hrito`rtburchak) hosil qilinadi.

Kompozitsiyada harakatsiz, turhun obrazli berish uchun, yopiq statik kompozitsiya tuzish zarur bo`ladi. Chiziqlar asosan markazga yo`naltiriladi. Berilgan vazifa simmetriyani hisobga olgan holda aylana, oval, kvadrat, to`g`ri to`rtburchak shaklida kompozitsiya qurish orqali hal qilinadi.

Agar panorama ko`rinishidagi manzara qurish zarur bo`lsa, uni chekkalarini biron-bir daraxt yoki bino bilan to`ldirish shart emas, yaxshisi uni ramkaning chekkalariga tomon ketuvchi qilib tuzish zarur. Bu ochiq kompozitsiya deb ataladi. Undagi chiziqlar markazdan yo`naladi. Agar uzoqdagi ko`rinib turuvchi ufqning oldidan biron - bir daraxt yoki predmetni joylashtirsak kompozitsiya juda ta'sirchan chiqadi.

Kartinalarda qiziq kompozitsion topilmalar juda ko`p uchraydi. Kompozitsiya faqat gina uchburchak, aylana, oval va boshqa geometrik shakllardan emas, balki bir necha hil shakllar orqali ham berilishi va bir kartinaning o`zida boshqa hil ham kompozitsion sxemani berish mumkin. Masalan, manzaradagi voqealarning birligi kompozitsiyani shartli triptix printsipli asosida qurish imkonini beradi.

Bunday holatda asosiy element yoki asosiy voqeaning o`ng va chap tomonidan unga bohlik bo`lgan guruhlar joylashtiriladi. Bunga misol qilib Bottichellining "Veneraning tuhilishi" asarini keltirish mumkin.

Bu kartinaning markazida hozirgina dengizdan tuhilgan va dengiz chihanohida turgan Venera tasvirlangan, chap tomonda dengiz tomondan unga qarab uchib kelayotgan va gullar ekayotgan Zefir tasvirlangan. O`ng tomonda unga qarab kelayotgan va simmetrik joylashtirilgan nimfa tasvirlangan. Qo`lida Veneraning ustini yopish uchun pushtirang yopinchoq ushlab turibdi.

Chekkadagi profil figuralar tamoshabinga qarab turgan asosiy obrazga yo`naltirilgan. Dengizdan tuhilgan sevgi xudosi - kompozitsiyaning asosiy mazmuni hisoblanadi.

Kartina yopiq kompozitsiya uslubida qurilgan. Figuralar bitta frontal tekislikda joylashgan bo`lib, oval shakliga joylashtirilgan.

Murakkab dinamik kompozitsiyalarda harakatning turli shakllari qo`shilib keladi. Bunday holatda figuralar bir-birini to`shib qolmasligi uchun yuqori nuqtadan qarab tasvirlash tavsiya qilinadi.

Tintoretto o`zining "Sirli oqshom" asarini xuddi shu uslubda yaratgan. Lekin bulardan kompozitsion sxemalarga katta e'tibor berish zarur degan fikr kelib chiqmasligi kerak. Rassom asar yaratar ekan eng avvalo kartinaning mazmun-mohiyatini o`ylab ko`rib obraz yaratishi lozim.

Kompozitsiya vositalari yordamida oralihini yillar, asrlar ajratgan voqea va hodisalarni ham bir sathda joylashtirish mumkin. Bu usullardan qadimgi rusda ikonaga rasm soluvchi rassomlar keng foydalanishgan. Masalan, ular uch yarusli kompozitsiyadan foydalanishgan, unda xuddi uch hil kartina ketma-ket joylashganga o`hshaydi, lekin shu bilan birga ular bir yaxlit kompozitsiyani tashkil qiladi. Ularda turli davrlar aks etadi.

Biz muntazam o`zgarib turuvchi dunyoda ishlayapmiz.

Kartinada vaqtni harakatini berish orqali tasvirlash mumkin. Rangtasvir, freska, miniatyurada harakat syujetning holatiga qarab qabul qilinadi. Inson xarakterli va voqealarning chuqurligi kartinadagi aniq harakatda yorqin namoyon bo`ladi. Hattoki ba'zi rassomlar portret, natyurmort va manzarada ham tasvirni dinamika bilan to`ldirishga harakat qilishadi. Bunday asarlarga qarab, hozir nima bo`lgani, keyinroq nima bo`lishini tasavvur qilish mumkin. Syujetning dinamikligi qandaydir ob'ektlarning joylashishidangina emas, balki ularning ichki holatini aks ettirishidan ham kelib chiqishi mumkin. Harakat aks etgan kompozitsiya dinamik kompozitsiya deyiladi.

Kompozitsiya har doim rassom oldiga murakkab vazifalarni qo`yadi. Ular aniq, original va takrorlanmas qilib hal qilishi lozim.

Kompozitsiyaning asosiy qonunlari

Kompozitsiyaning asosan to'rtta qonuni mavjud: yaxlitlik qonuni, tipiklashtirish qonuni, qarama-qarshi munosabatlar (kontrast) qonuni, kompozitsiyaning barcha vositalarining fikriy mazmuniga bog'liqligi qonuni.

Yaxlitlik qonuni

Kompozitsiyaning birinchi qonuni asarning yaxlitligi qonuni hisoblanadi. Manzara kompozitsiyasi qonunan qurilgan yaxlitligini kompozitsiya aniqlab beradi. Kompozitsiyaning barcha unsurlari rassomning mantiqiy o'y-fikrlarini birlashtirgan holda joylashadi. Biz buyumni yoki asarni kuzatar ekanmiz, avvalo uning umumiy ko'rinishiga e'tibor beramiz va bo'laklarni bir-biriga taqqoslaymiz. Demak, asarning bir butunligi (yaxlitligi) kompozitsiyani tashkil etadigan barcha qismlarining o'zaro bog'liqligidir. Unsurlarning uyhunligi o'zida kompozitsiyaning xususiyatlarini mujassamlashtiradi.

Yaxlitlik tushunchasi kompozitsiya unsurlarining bir-biriga bevosita bo'ysinishi kabi tushunchalar bilan bog'liqdir.

Bu qonun badiiy tasvirning hamma turlarining asosiy qonuni hisoblanadi. Yaxlitlik qonunini qo'llamasdan turib chizish ham, naturadan ishlash ham mumkin emas. Shakl ham, rang ham o'z-o'zicha paydo bo'lmaydi, balki ular butunlik bilan munosabatda, butunning qismi sifatida ko'rinadi.

Kartinada chuqur o'ylanmagan konstruktiv fikr bo'lmasa, bo'laklar xuddi yopishtirib ishlanganday bo'ladi. Bunday holatda biz faqat alohida figuralarning o'zinigina eslab qolamiz. Asarda butunlik bo'lmaydi.

Rassomlar kompozitsiyaning konstruktiv- fikriy tuzilishini topish uchun turli usullardan foydalanishadi.

Ba'zi rassomlar kompozitsiyani tartib bilan o'ylab topadi, ba'zilari esa oldin tasavvuriga nima kelsa o'shani tartibsiz chizib tashlaydi, keyin esa undan yo'l kursatuvchi konstruktiv fikr qidiradi.

Mukammal manzara kompozitsiyani yaratish rassom uchun murakkab yo'l hisoblanadi. Shuning uchun ham mukammal yaratilgan kompozitsiyadagi bitta detalni olsak ham uning yaxlitligiga zarar yetadi. Bunday

kompozitsiyaning barcha unsurlarining aloqasi aniq va mazmundor bo'lganligidan unga qo'shimchalar kiritib va o'zgartirib bo'lmaydi.

Kompozitsiyaning barcha unsurlarining o'zaro aloqasi faqat gina mantiqan emas, balki uyhunlik yaratuvchi emotsional estetik sifatlarga ega.

Manzara kompozitsiyaning yaxlitligi, aloqasi va bir-biriga bog'liqligi muammosi kompozitsiya elementlarining takrorlanmasligi, turli-tumanligi vazifasi bilan uzilmas aloqadadir. Kompozitsiyada hech narsa takrorlanmasligi kerak. Uning kattaligi, dohi, intervallari, tipi, jesti ya'ni harakat belgisi ham takrorlanmasligi kerak. Ularning hammasi bir butun doh yoki siluetga birlashishi rus rassomlaridan biri Shishkinning manzara kompozitsiyalarini olishimiz mumkin. Ko'pgina rassom o'zining ko'p asarlarini yaratib, ko'p detallarini takrorlanmasligiga erishishgan.

Kompozitsiyadagi tipiklashtirish qonuni uchta asosiy belgilari bilan xarakterlanadi.

Birinchi belgi - kompozitsiyadagi berilayotgan voqea va xarakterlarning tipikligi. Bu qonunning asosida xarakter orqali tipikligi berilgan badiiy asar yaratishdir. Bunga misol qilib A.K. Savrasovning "Qora qarhalar uchib keldi". I.I. Levitanning "Qaynizor" kabi asarlarini olish mumkin. Bu asarlar juda mazmundor, qiziqarli, go'zal bo'lishi bilan birga, rus tabiatining tipik obrazini ochib beradi.

Tipiklashtirish qonunining ikkinchi belgisi san'at asarida harakatni berish, vaqtni ko'rsatib bera olishdir.

Ritm

Hammaga ma'lumki, ritm - bu tabiatning universal xususiyatidir. Masalan, kun va tun, yil fasllari tsiklik ravishda o'zgarib turadi, hayvonlar, o'simliklar va suv havo daraxtlar rivojlanish jarayoni aniq ketma-ketlikka ega. Lekin hayot va san'atdagi ritm bir hil emas. San'atda ritm va ritmlik aktsentlarda uzilish, notenglik, noaniqlik bo'lishi mumkin.

Musiqadagi kabi tasviriy san'atda ham ritmlar faol, uzuk-yuluq, tekis, xotirjam, sekinlashgan ritmga ajratiladi.

Ritm - bu qandaydir elementlarni ma'lum bir ketma-ketlikda joylashishidir.

Rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik, dekorativ san'atda ritm kompozitsiyaning muhim tasviriy vositasi sifatida qatnashadi. U faqat tasvirni ko'rishdagina qatnashib qolmay, balki asarga aniq emotsionallik bahsh etadi.

Ritm chiziqlar, dohlar, yoruhlik va soya, rang orqali berilishi mumkin. Manzarada bir-hil elementlar takrorlanib keladi, masalan odamlar qomati, ularning qo'li yoki oyohi va hakoza.

Natijada ritm hajmlar kontrasti asosida quriladi.

Ritmlar dekorativ - amaliy san'atda muhim rol o'ynaydi. Turli-tuman bezaklardagi ko'plab kompozitsiyalar elementlarining aniq ritmik ketma-ketligida qurilgan.

Ritm tekislikda harakatni bera oluvchi vositalardan biridir. Nimaga ritm harakatni ko'rsata oladi?

Perspektiva

Hammamizga ma'lumki, tevarak- atrofimizni o'rab turgan shakllar va ularning kattaligi tomoshabinga nisbatan qanday masofada joylashganiga va fazoda qanday holatda turganiga qarab o'zgaradi. shakl va kattaliklardagi bu o'zgarishlar aniq qonunlarga , ya'ni chiziqli perspektiva qonunlarga asosan kelib chiqadi

Ko'chadan o'tayotgan mashina, odam va hokazolarni sinchiklab kuzatish orqali ularni uzoqlashgan sari tobora kichrayib borishini va aksincha yaqinlashgan sari kattalashib borishini sezish qiyin emas. Shuningdek ko'chaning kengligi ham uzoqlashgan sari toraygandek tuyuladi. Uylar, daraxtlar, umuman hamma narsalar kuzatuvchidan uzoqlashgan sari kuchraygandek tuyiladi, yoruh - soyalari, rang xiralashadi, Hajmi esa yo'qdek tuyuladi. Buni perspektiva hodisasi deyiladi.

Perspektiva aniq fan bo`lib, u chizma geometriyaning alohida bo`limidir. Lotinchadan tarjima qilinganda perspektiva "aniq ko`ryapman " degan ma'noni bildiradi. Rasm chizish perspektivaning bir turi bo`lib unda kuzatish perspektivasidan keng foydalaniladi. Perspektivaning bu turi uning qonun - qoidalariga to`liq rioya qilingan holda kuzatish, chamalash va faraziy fikr yuritish asosida hech qanday geometirik asbobsiz (chizhich, tsirkul) ish yuritishni taqozo etadi.

Badiiy ijodda fazoni to`g`ri kuzata bilish va qabul qilish muhim rol o`ynaydi.

Perspektiva qonunlarini bilish rassomga realistik tasvirlarni ko`rishda yordam beradi. Lekin nazariy ijoddagi hissiyot, kechinmalar va obrazni yo`qqa chiqarmasligi kerak.

2.2. Manzarani rangli tasvirlashda obroz kolorit fazo va kompozitsiyon ifodalilikning ahamiyati.

Kolorit – bu san'at asarining rang sifatlarini umumiy estetik baholash, asarning barcha rang elementlarini oʻzaro aloqasi xarakteri, uning rang tuzilmasi hisoblanadi. Koloritning eng katta xususiyati – ranglarning boyligi va oʻzaro bogʻliqligidir.

Kolorit – asarning eng muhim komponenti, rangtasvir, rangli grafika, dekorativ san'atning koʻpgina asarlarida badiiy ifodalashning vositasidan biridir.

Manzara rangtasvirda ranglarning birligi muhim rol oʻynaydi. Koʻpincha rang toni va yorqinligi bilan bir – biriga yaqin boʻlgan ranglar oʻzaro birlashadi. Ranglar oʻzaro tonli biriksa, unda sifat oʻzgarishlari yuz beradi va jarangdorlik paydo boʻladi. Agar rang umumiy tondan ajralsa, oʻziga mos kelmasa rangtasvir asarining yaxlitligi boʻziladi.

Manzara rangtasvirda ranglarning oʻzaro aloqasi hisobiga quriladi, unda hech qanday rang dohlarini oʻzgartirish, kattalashtirish yoki kengaytirish mumkin emas.

Kartinadagi turli ranglarning tonli birligi, oʻzaro aloqasi, garmonik mos kelishi kolorit deb ataladi. Kolorit bizning koʻz oʻngimizda dunyoning barcha rang boyligini ochib tashlaydi. U rassomni kartina kayfiyatini berishida yordam beradi. Kolorit tinch, quvonchli, qayguli va xokazo boʻlishi mumkin. Kolorit issiq va sovuq, yorqin va toʻq boʻladi.

Qadimgi davr rassomlarining asarlarini oʻrganib chiqsak koloritning rivojlanishi tarixini bilib olishimiz mumkin. Kolorit tushunchasi XV asr oxiridan boshlab paydo boʻladi. Koloritning imkoniyatlari barokko davrida, ayniqsa impressionistlar ijodida gullab yashnaydi.

XV asrlarda italyan, frantsuz, nemis rassomlari ijodida boʻyoqlar bir – biridan ajratib, mustaqil ravishda ishlatilgan. Masalan, Bernard Strigel maktabiga mansub noma'lum rassom tomonidan ishlangan «Avliyo Roxning yarasini davolash» nomli asaridaplash rangi yoruhlikda ham, soyada ham qizil, faqat yorqinroq yoki toʻqroq qilib berilgan. Bu asarda predmetlar yoruhlashib turganga oʻxshaydi, qahramonlar figurasi atrof – muhit bilan

yaxlitlashib ketmagan, balki noaniq kul rang fonida yorqin doh bo`lib ko`rinadi.

Koloritdagi birinchi o`zgarishlar XV asr oxirida paydo bo`ladi. Bu davrda bo`yoqlar yarimtonli qilib aralashtirilgan, ranglar bir – biriga mayin o`tgan. Rang va shakl bir bo`tun bo`ladi, bo`eq yoruhlik va masofadan ajratilmaydi. Bellinidan Titsian va Tintorettoga tomon yo`l – bu lokal koloritning tonli koloritga tomon o`tishni bildiradi.

XVI asrga kelib rangtasvirda rang ancha konkretlashadi. Yangi tuslar paydo bo`ladi. Karavadjoda – to`q qizil, yashil, jigarrang – sariq, bo`tako`z rangli,ko`k, Velaskesda esa qora, kulrang, oq va pushti ranglarning ko`z ilgamas o`tishini qurishimiz mumkin. Rembrandt to`q rangli tonlar bilan ishlagan, ranglar yangi xususiyatlarga ega bo`ladi, ya'ni ko`tarinkilik va noma'lumlikni keltirib chiqaradi. Uyg`onish davri rangtasvirchilari ,masalan Titsian, rangdan naturani hayotini aniqlash uchun foydalanadi. Barokko davrida rang estetik funktsiyani aniqlovchi rangtasvir fantaziyasi elementi sifatida yuzaga keladi.Qadimgi rassomlarning asarlari aralash tonlar, murakkab texnik usullar, bo`yoqlarning bir-biriga nozik o`tishi hisobiga qurilgan. Ular kuchli tonli va rang kontastidan foydalanishgan. Rassomlar qo`tilgan rangli tonni topish uchun lessirovka usulidan foydalanigan. XVIII asrga kelib bo`yoqlar bilan estetik o`yin juda murakkablashib va go`zallashib ketadi. Rassomlar bitta rangning nozik nyuanslaridan yuz, sochlar va kiyimlarni ishlashda foydalanganlar. Birinchi planga oq.yorqin-sariq va qahva rangli-jigarrang chiqadi.

XIX asr uchun rang va shakl orasidagi qarama-qarshilik, optik eksperimentlar xarakterlidir. Bu davr rassomlari, ayniqsa impressionistlar quyosh yorqinligini shuningdek, yoruhlikdagi yorqinlikni ajratib ko`rsatishga harakat qilishgan. Ular rang kontrastlariga diqqat e'tibor qaratdilar, ranglarni optik aralashtirish effektidan foydalangan holda toza ranglarga o`tdilar. Matiss, Gogen, Van Gogda – tiniq konturlar va juda jarangdor, katta dohli bo`yoqlar bo`lgan. Matiss qohozdan rang dohlarini qirqib rasmini chizmasdan tekislikka

joylashtirgan. Matiss tayyorlagan qohoz nakleykalarni yengilgina gobelenga, matodagi rasimga va kitob bezaklariga aylantirish mumkin. Gogenning kartinalaridagi ranglar faqat tasviriy ahamiyatgagina emas, balki dekorativ va simbolik ahamiyatga ham ega. Uning kartinalarida qizil qumni, pushtirang otlarni, ko`k daraxtlarni ko`rish mumkin.

Van Gog kartinalari ranglar kontrasti asosida qurilgan, lekin unda dekorativ emas, balki psixologik omil bo`la oladi. Ular o`ziga xos bo`lgan kayfiyatni beradi.

Kolorit hissi – juda qimmatbaxo qobiliyat. I.Repin, V.Surikov, K.Korovin, M.Vrubel, F.Malyavin, V.Borisov-Musatov, o`zbek rassomlardan Urol Tansikboyev, M.Nabiyev, A. Abdullayev va boshqalar yirik kolorist – rassomlar hisoblanishadi. Masalan, Repin issiq, oltinrang–qizil koloritda asarlar yaratgan. Surikovning koloriti osmonrang–ko`k, sovuq ranglar bo`lgan. Serovning ko`pgina asarlari ko`krang–kumush koloritda ishlangan, Vrubel esa kul rang, osmonrang va ko`k ranglarni sevib ishlatgan. Malyavinning ko`pgina kartinalari olovrang–qizil koloritda yaratilgan. O‘.Tansiqboyev–osmonrang, to`q-ko`k va yashil ranglarni, P.Benkov esa oltinrang- oxra, sariq ranglarni sevib ishlatgan.

Ko`pincha kolorit tabiat, maishiy hayotning, odamlarning milliy xususiyatlarini rangtasvirda berishning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. Rangtasvirda "milliy kolorit" tushunchasi shundan kelib chiqadi. M.Saryan va R. Ahmedov asarlari bunga misol bo`la oladi.

Rassomning koloriti haqida uning palitrasidan bilib olish mumkin. Har bir rassom ranglarni palitrada o`ziga qulay, aniq va kerakli miqdorda joylashtiradi. Rassom foydalanadigan bo`yoqlar to`plami va bo`yoq aralashtiradigan maxsus idish palitra deb ataladi. Bunda rassom ijodi yoki konkret asar uchun xarakterli bo`lgan ranglar qatori e'tiborga olinadi. Bu jihatdan olib qaraganda «palitra» termini «kolorit» tushunchasiga juda yaqin. Masalan, frantsuz rassomi P.Pikassoning palitrasi uning ijodining «Osmonrang» davrida sovuq

osmonrang va ko`k bo`yoqlardan iborat bo`lgan, keyingi «pushti» rang davrida esa – issiq pushti va oltinrang tuslardan iborat bo`lgan.

FAZO. O`rta asrlardagi tasavvurlarning o`zgarishi fazoni tasvirlashning boshqacha usullariga o`tishga keng yo`l ochib berdi. XV asrlardayoq rassomlar manzarani qush uchar balandlikdan tasavvur qilib chizishga harakat qilishgan.

U insonlar fazoni turlicha qurishini, ya'ni yaqindagilar va o`zoqdagilar fazoni turlicha qurishini isbotlab berdi. Bizga yaqin turgan predmetlar aniq perspektiv qisqarishlarga ega bo`lmaydi, ularni aksonometriyada tasvirlash lozim bo`ladi. Chiziqli perspektiva esa faqat uzoqdagi predmetlarda amal qiladi.

Uyhonish davrida fazoni tasvirlash haqidagi matematik aniqlikka ega bo`lgan fan yaratildi. Bu perspektiva sistemasi edi. Renessans davri rassomlari uchun perspektiva dunyoni bilish usullaridan biriga aylandi.

Perspektiva fanining yuksalishida Uyhonish davri rassomlaridan P-della Francheska, Leonardo da Vinchi, Rafael, A. Dyurer va boshqalar katta hissa qo`shishdi.

Perspektiva qonunining kashf qilinishi bilan Yevropa rassomlari uchun tevarak-atrofni realistik tasvirlash an'anaga aylanib ketdi. Sharq halqlarida (Koreya, Xitoy, Yaponiya, Markaziy Osiyo) madaniyatida fazoni tasvirlanishini o`ziga xos usullari ishlab chiqildi, perspektivaning turli sistemasidan foydalanildi. Yaqin va kichikroq ob'ektlarga aksonometriyani qo`llashgan. Sharq halqlari mu'jaz san'atida ham o`ziga xos bo`lgan perspektivani qo`llashgan.

2.3. Manzarani rangda tasvirlash jarayonining asosiy qonun qoidalari

Tabiat benihoya jozibali va go`zaldir. Quyosh nuri va atrof muhit cheksiz turli ranglarni hosil qiladi.

Manzara tasviriy san`atning eng hissiyotli janrlaridai biri hisoblanadi. Go`zal manzara asarlar o`zining nafosatli tahsiri bilan insonni ma`naviy boyitishga erishadi.

Ona tabiat qo`ynida bo`lish ijodiy fikrlar tugilishi va ruhlanishni o`zgarmas manbai hisoblanadi. Rassom biror bir joyni tasvirlashda o`sha muhitni chuqur o`rganmay, tahlil etmay hayolan tasvirlasa bu ish soxta chiqib tomoshabinni o`ziga jalb eta olmaydi. Muntazam ijod etish rassomni nozik sezishga va tabiatni mahlum holatini rangli va tusli xususiyatlarini to`laqonli yetkazishga o`rgatadi.

Tabiatda ijod qilish xona ichkarisidagi ishlash sharoitidan farqlanadi. Kuchli yoruglikni hosil qiluvchi yorutlikni ko`pligi, reflekslarni turli-tumanligi, manzara ob`ektlarini kuzatuvchidan yirok,ligi, yoritilishning tezlik bilan almashuvi, yil fasli va ob-havoni turli holati- buning hammsi yosh rassomga yangi va odatlanmagan sharoitdir.

Manzara etyudining muhim afzalligi - tabiatning mahlum holatini, yoritilganligini va obrazini havoii muhit tahsirini mahnoli makonni yetkazishdir. Manzara tasvirini bunday sifatlariga rassom havo perspektiva qonuniyatlariga amal qilish, rang munosabatlari bilan ishlash metodi, umumiy tus va rang holatini va fazoni to`gri topish yordamida erishadi. Manzara ob`ektlari va narsalarni rang, och-to`qligi va to`yinganligi bo`yicha taqqoslash, solishtirish, ularning naturadagi farklarini belgilash-bular etyudning rangli munosabatlarini tugri ifodalashda asos qilib olinadi. Manzara etyudini mahoratli tasvirlash-demak uning rang munosabatlarini va undagi obrazni naturada ko`rinayotganday o`xshatib bajarishdir.

Bunday talablar natyurmortning rangli tasviriga ham asos bo`lgan. Manzara etyudining birinchi mashqlaridanoq naturani xaqqoniy tasvirlash uchun rangning och-to`qligi va to`yinganligi, rang munosabatlarini aniq topish muhimligini tushunish kerak.

Manzarani kuchli quyosh nuri bilan yoritilganlik darajasini rassom teng ravishda palitraning bo`yoqlar doirasiga o`tkazadi, so`ngra tomoshabin etyuddagi ko`rinishni absolyut yorqinlikda emas, balki naturaga teng ravishda etyuddagi rang munosabatlarini o`rnatilganligi tufayli qabul qiladi.

Manzarada yoritilish darajasi kuch jihatdan ham, rang jihatdan ham juda tez o`zgaruvchidir. U yil fasllariga qarab, bulutli havo, yorug`lik nurlarini tushish burchagiga (artalarab, kunduzi, kechqurun) qarab o`zgaradi. Kunning qoq peshindagi yoritilishi ertalabki va kechkiga karaganda yuz barobar kuchlidir. Shuning uchun etyuddagi tus munosabatlari mahlum tusli va rangdorlik darajasida saqlanib turishi kerak. Ayrim holatda rang munosabatlarini ifodalashda palitraning och va yorqin bo`yoqlari (quyoshli kun), boshqasida esa kam to`yingan quyuq, qoramtir bo`yoqlar qo`llaniladi (bulutli kun). Shunday qilib etyud tasvirlashda yoritilish kuchi va umumiy tusni hisobga olish kerak. Bunga avvalom bor barcha narsalari yorqinligi, ranglarni to`yinganligi bo`ysunishi zarur. Shuning uchun etyudni tasvirlashga kirishishdan oldin quyidagi masalani yechish zarur: naturaning etyudida ko`proq yorqin, to`q va to`yingan doglar rang va yoruglik kuchi jihatdan qanday bo`ladi. Shular atrofida etyudning barcha narsalari va ob`ektlari rang munosabatlarida qurilgan bo`lishi kerak.

Ko`zning moslashuvi deb ataluvchi (yoruglikka ko`zning sezuvchanligini ko`tarilishi va pasayishi) natura (tabiat) har xil yoritilishda turli taassurotlarni yuzaga keltirishi mumkin. Masalan, quyosh nurlarida kuzatilgan tabiat to`satdan bulutlar bilan qoplanganda barcha ranglar o`zgarib to`qroq bo`lib ko`rinadi.

Manzara etyudlarini bajarish jarayonida taqqoslash va munosabatlar bilan ishlayotganda naturani yaxlit ko`rish kerak, aks holda naturaning tus va rang munosabatlarini to`gri aniqlash va etyudning jozibador ko`rinishiga erishish mumkin emas.

Rangtasvir ishlash jarayonida manzara ob`ektlari va fazodagi narsalarni yaxlit ko`rib turish muhim. Amaliy ishlash vaqtida birinchi ko`rinishni yorqin ranglarda keyingi ko`rinishlarni esa xiraroq ishlash kerak. Faqat yaxlit ko`rish orqali manzaraning perspektiv o`lchamlarini, ularning turli ko`rinishdagi rang munosabatlarini to`tri aniqlash hamda tasvirlashga erishish mumkin.

Naturaning rang munosabatlarini kompozitsion ifodalayotganda ranglar birdamligini ham nazarda tutish kerak, u esa yoritilish spektr tizimini yaratadi. Ertalab naturada oltinsimon pushti bo`yoqlar, kechqurin esa sarik, zargaldoq, bulutli kunda esa-neytral kumushsimon ranglar ustun keladi. O`rmonda yashil issiq ranglar doim ustun turadi. Oydin kechada kulrang-havorang va yashil ranglar kuzatiladi.

Naturadan ishlash jarayonida rassom rang munosabatlarini mutanosibligi, umumiy rang va tus holatining vazminligini kuzatib qolmay, rang koloriti va ranglar garmoniyasini yaxlitligiga erishishi kerak.

Kolorit hissiyotining tomoshabisnga tahsir kuchi shunda namoyon bo`ladiki, kartinadagi narsalar, ob`ekt yoki voqea ma`lum yoritilish sharoitlarida kolorit holatini haqqoniy ifodalay olsa. «Kim men uchun haqiqiy kolorist hisoblanadi?» - deb D.Didro o`zi javob beradi: «Tabiat ranglarini tugri yoritilganligini tasvirley olib kartinada uygunlikka erisha olgan rassomgina».

Plener sharoitida munosabatlar bilan ishlash uslubi ko`pchilik metodik adabiyotlarda muallif tomonidan yoki ehtiborga olinmaydi yoki aniq tushuncha berilmaydi, ko`pincha umuman noto`gri

«Munosabatlar» tushunchasi deyilganda rang turlarini mutanosibsizligi, etyud va natura tomoshabin obrazida rang munosabatlarini farqlanishi aniq emasligi nazarda tutiladi.

Rassomlar ko`p asrlar oldin narsalarning ranglari muhit bilan yoritilish sharoitlari bilan, o`zgarishlarini bilishgan. Uygonish davridan boshlab rassomlar rangtasvir haqida turli risolalar yozib, chiziqli va

havoiiy perspektiva qoidalari, naturaning ranglardagi ko`rinishida muhitni o`rni (Leonardo da Vinchi, A.Dyurer, D.Konstabl, D.Reynolg'ds) to`laqonli bayon etilgan. Shunday bo`lsa ham bu rassomlar plenerli manzarani kashf etmaganlar. Mahlum bo`lishicha plener rangtasviri XIX asrning ikkinchi yarmida rassomlar tasvirni tusli va rangli ko`lamini saqlagan holda munosabatlar metodi bilan ishlashni boshlagan vaqtda paydo bo`lgan (V.D.Polenov, I.I.Levitan, K.A.Korovin va boshqalar).

Manzara rangtasviri bo`yicha birinchi mashgulotlar manzaraning asosiy ob`ektlari orasidagi ranglar farqini tasvirlashga qaratilgan qisqa vaqtli etyudlar bo`lishi kerak (bino silueti, osmonning umumiy dogi, yer yuzining umumiy tekisligi, daryoning oynali yuzining bir xildagi rang dog`i va hokazolar).

«Etyudni tasvirlashda osmonga nisbatan suv va yer tusining munosabatlarini birdaniga inobatga olib tasvirlash kerak», -deb yozgan K.A.Korovin.

I.I.Levitan yosh rassomlarga maslahat beradi: «Biz hali manzaradagi yer, suv, osmonni umumlashtirish, bir-birini bog`lash ko`nikmalarini to`laqonli egallamaganmiz: hammasi alohida, barobar esa yaxlit bu jaranglamaydi. Axir eng muhimi va murakkab -manzarada suv, yer va osmonning to`g`ri rangli munosabatlariga erishishdir».

Misol tariqasida N.N.Ge «Bulutlar», «Dengizda quyosh botishi» va A.E.Arkipovning «Shimoliy manzara» asarlarini ko`rishimiz mumkin. Rassom N.N.Ge osmon, suv va yer munosabatlarini, old ko`rinishdan ichkari tomongacha ranglarning perspektiv o`zgarishlarini nozik ifodalagan. A.E.Arkipovning etyudi esa betartib to`q rang surtmalari bilan osmon, yerning asosiy munosabatlari ko`l bo`yidagi katta bo`lmagan omborxona tasvirlangan. Bunday dastlabki birseansli etyudlarda naturaning yirik rang munosabatlarini astoydil tasvirlashi talabani manzara etyudidagi rang tuzilishi, uming materiallik va

fazoviy sifatlarini, hamda tabiatdagi turli yoritilish holatlarini mahoratli yaragish malakalarini rivojlantiradi.

Yoritilish holatini hisobga olib umumiy ranglar munosabatiii qisqa vaqtli etyudda bajarish bo'yicha biroz tajribaga ega bo'lgach ikki-uch seansga mo'ljallangan mashqlarga o'tish mumkin. Uzoq vaqtli etyudlarni ishlash jarayonida ham dastlab asosiy rang munosabatlaridn (asosiy dog'lar), yaxlit surtmalarni qo'llash, so'ng old, o'rta ko'rinishdagi mayda-bo'laklarni bajarishga o'tiladi va xokazo.

Tajribasiz rassom uzoqda joydashgan (100-300 m) ko'katlar rangini xuddi oldida turgandek ko'radi. Vaholanki, yiroqdagi rang mutlaqo boshqacha ko'rinadi: yashilnish nozik ranglari va uning tuyinganligi uzoqlashish tahsirida albatta o'zgaradi. Tajribasiz rassomlarning asosiy kamchiligi: ishni yaxlit ko'rmaslik, mayda shakllarni tasvirlash bilan chagib ishni samarali yakunlay olmaydilar.

Tabiatdagi narsalarning ranglari yoritilish kuchi va spektr birikmalariga bogliq (kunduzi, kechqurun, quyoshli kunda, bulutli ob-havoda) holda o'zgaradi. Masalan, kechqurun quyosh botish vaqtida qayin tanasi zarg'aldoq qizil tusda ko'rinadi. Shunday bo'lsa ham tajribasiz rassom qayin tanasini oq rangda tasavvur etadi.

Manzarani rangli tasvirlash jarayonida narsalarning predmetlik ranglarini yoddan chiqarish ko'nikmasiga erishish (shaxsiy rangini), yorug'lik tahsiri va uzoqlashgandagi ranglarni sezish mahoratini rivojlantirish zarur.

Manzarani rang tasvirda ishlashda yuqorida aytib o'tganimizdek aniq qonunlar asosida quriladi. Uning qoidalari, priyomlari va vositalari esa butun ish jarayonida qo'llaniladi. Ular manzaraning yaxlitligi va ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Rassomning fikri taassurotini yoritib beruvchi badiiy vositalarning qo'llanilishi va original kompozitsion yechimni topish manzara tasviriy asosi hisoblanadi.

Manzara ishlash qoidalarini quyidagilarga ajratish mumkin: harakat (dinamika)ni berish, tinchlik (statika, oltin kesim 1/3).

Manzara ishlashning priyomlariga ritm, simmetriya va assimmetriya, muvozanat va syujetli - kompozitsion markazni aniqlash kiradi.

Manzara ishlashning vositalari quyidagilardan iborat: format, masofa, kompozitsion markaz, ritm, kontrast. Yoruh-soya, rang, dekorativlik, dinamika va statika simmetriya va assimmetriya, ochiqlik va yopiqlik, yaxlitlik va hokazo. Shunday qilib, kompozitsiya vositalari, bu kompozitsiyani yaratishda zarur bo`lgan barcha narsalar, shu bilan birga ularning qatoriga kompozitsiyaning qoidalari va priyomlarini ham kiritamiz. Ular turli tuman. Biz bu yerda eng asosiylari to`hrisidagina ma'lumotlarni berdik.

2.4. Mavzu ustida izlanishlar va ish jarayoni

Men ilmiy ishimni nazariy qismini yoritish jarayonida avvalo mavzu uchun zarur bo'ladigan adabiyotlar, o'quv qo'lanmalari va san'at jurnallarini to'plab, o'qib chiqdim. Universitet kutubxonasiga kirib, Raxim Xasanovning "Tasviriy san'at asoslari", Abduvali Egamberdiev, Sayyora Saidova, Ravshan Rajabovlarning "Tasviriy va me'morchilik san'ati tarixi", Raxim Xasanovning "Maktabda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi"

, S. Abdirasilov, N. Tolipovlarning "Tasviriy san'at o'qitish metodikasi (amaliy mashhulotlar)" kabi bir qancha kitoblarni ko'zdan kechirdim.

Ilmiy ishimning amaliy qismini ishlash jarayonimda men o'zim uchun qiziqarli bo'lgan tabiat manzaralarini bir qancha etudlarini ishladim. Uni ustozimga ko'rsatib maslaxatlashganimda, menga avvalo Xorazm manzarachi rassomlarining ustози hisoblangan Otaxon Allaberganovning manzara janrida ishlagan ishlarini bir kuzatib chiqsang-deb maslaxat berdi. Men musavvirning bir qancha manzara janrida ishlangan ishlarining reproduksiylarini ko'zdan kechirib chiqdim. Haqiqatdan ham musavvir o'z asarlarini shunday moxirlik bilan ishlaganki kuzatuvchiga ushbu asarlar xuddi real borliqning bir bo'lagiday seziladi. Ayniqsa suv bo'yoqdan foydalanib ishlagan kichik-kichik etudlari kuzatuvchini rom qiladi qo'yadi. Yaqinda "San'at" jurnalida Otaxon Ollaberganovning hayoti va ijodiga bahishlangan ajoyib bir maqolaga ko'zim tushib qoldi. Unda musavvir xorazm viloyatining eng chekka qishloqlarini ham, qum va barxanlarni ham, kadimiy Xiva manzaralarini ham zo'r bir ishtiyoq bilan tasvirlaganligi hikoya qilinadi. Bu bilan musavvir har kimning o'z vatani o'zi uchun a'ziz ekanini rang va bo'yoqlar vositasida uqtirayotgandek go'yo.

Biz bilamizki inson mehnati evaziga yaratilayotgan san'at asari ijodkor faoliyatining samarasidir. Rangtasvirning asosiy qonuniyatlari kelib chiqishiga ko'ra xayotda uchraydigan oddiy va ko'p marotaba takrorlanuvchi shakllarga borib taqaladi. Bunday shakllarni musavvir ajoyib manzara kompozitsiyalar tuzish orqali yaratadi.

Kompozitsiyani rassom kuzatishni o'rganmasdan, o'zi uchun qiziqarli va muhim jixatlarni belgilamasdan turib yarata olmaydi. Shu daqiqalardan keyingina musavvir uchun eng zarur bo'lgan borliqni ifoda etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ya'ni rassom tabiatni kuzatish va uni sinchiklab o'rganish orqaligina manzara janrida biror-bir muvaffaqiyatga erisha oladi. Buning uchun esa rangtasvirning ifodaviy vositalaridan bo'lmish chiziqlardan, ranglardan, perspektiva qonuniyatlaridan keng va moxirona foydalanadi. Xar qanday ijodkor kompozitsiyada ifoda etilgan ko'rinishni tomoshabinga ko'rsatish uchun xarakter rivoji davomida kuzatish nuqtasini tanlaydi. Shundagina musavvir tomoshabin nigohini rangtasvir kompozitsiyasining muhim nuqtasiga qarata oladi. Eng oddiy echim-bu manzarada kuzatuvchi nigoxini hech qiyinchiliksiz tasvirlanayotgan jarayonga jalb qila bilishdir.

Rangtasvir ishlash jarayonida kartina tekisligining tuzilishi ham muhim ahamiyatga ega. Asarda tasvirlanadigan o'simliklar va buyumlar kartina tekisligida joylashtirilishi kerak. Tasvir kartinada " uchburchak" xosil qilib turishi uchun kartina tuzilishiga diqqatni qaratish zarur. Rangtasvirda kartina uning xarakteriga muvofiq keluvchi ko'lamga ega bo'lishi shart. Fedotovning janrli kartinalarida tasvirlangan ko'rinish unchalik keng ko'lam talab qilmaydi. I. V. Surikovning tarixiy kartinalari esa xususiyati va mavzusiga ko'ra keng ko'lam talab qiladi. Ko'pchilik rassomlar asarlarida kartina tekisligi to'g'ri tanlangani uchun muvaffaqiyatli chiqqan. Asarning muvaffaqiyatli chiqishiga kartina uchun tanlangan mato xajmi ham muhim.

Rangtasvirda uch o'lchamli makon nafaqat voqea sodir bo'layotgan yoki figuralarning harakatlanish joyini belgilashda, balki yaxlit kompozitsiya tuzishda ham qo'llaniladi.

Men ham o'z ilmiy ishimning amaliy jarayoniga o'tishdan oldin bir qancha rassomlarimiz asrlarining reproduksiyyalarini bir necha marotaba kuzatib, muxokama qilganimdan keyin ish boshlashga kirishdim. So'ngra manzaraning tasvirini chizishga kirishdim. Ushbu jarayonni bajarishda oldindan tayyorlab qo'ygan xomaki eskizlarimdan foydalandim.

Bizga ma'lumki rangtasvir kuz manzarasi kompozitsiyasini chizish jarayonida quyidagi qoidalarga-kompozitsiyada ritim, simmetriya, asimmetriya, paralellik, asosiyning ikkinchi planda joylashuvi, rangtasvir kompozitsiyasida mazmun markazining bo'lishi bo'lishiga amal qilishga to'g'ri keladi.

Rangtasvir kompozitsiyasi uslublari xaqida so'z yuritganda esa, monumentallik xissini tasvirlashga xarakat qilish, fazoni tasvirlash, gorizontallar va vertikallar, deognallariga e'tibor berish talab qilinadi.

Rangtasvir kompozitsiyasi vositalari deyilganda, kompozitsiyaning chiziqlar, dohlar, yoruh-sayalar, chiziqli va havo perspektivalaridan iborat ekanligini nazardan chetda qoldirmaslik kerak bo'ladi.

Men ham malakaviy bitiruv ishimning amaliy qismini bajarishda yuqoridagi qonun-qoidalarga amal qilishga xarakat qildim.

Bizga ma'lumki O'zbekiston tabiati barcha ijodkorlar va barcha go'zallik shaydolari uchun hamisha quvonch va zavq manbai, ijod manbai bo'lib kelgan. Xususan buni rassomlardan O'.Tansiqboev, Z.Inahomov, P.P.Benkov kabi bir qancha musavvirlarning ijodida ko'rish mumkin.

Ma'lumki, tabiat go'zalligining asosini undagi qaytarilmas ranglar, shakllar hamohangligi tashkil etadi. Shuningdek bunga tabiatdagi ajoyib o'ziga xos narsalar va ko'rinishlar ham xizmat qiladi. Faqatgina ijodkor tabiatdagi bu go'zalliklarni ko'ra bilishi, ularni muntazam ravishta kuzata olishi zarur.

Men o'z ilmiy ishimda faqatgina tabiat manzarasini ko'rsatibgina qolmasdan, o'sha tabiat manzarasini o'quvchilarga idrok qildirish ustida ham izlanishlar olib bordim. Chunki o'quvchilar tabiatni idrok qilishni bilmasdan turib, rangtasvir kompozitsiyasining ifodaviy vositalarini anglab etishi qiyin.

Tabiat qo'yniga qilingan sayohat jarayonida uning go'zalliklarini o'rganish narsalarning rangi, fazoviy xolati, o'lchovlari bilan bog'liq bo'lib, ular bolalarning badiiy ijodiy qobliyatlarini to'stirishga ham samarali ta'sir ko'rsatadi

Tabiatga uyushtirilgan sayohat jarayonida o`quvchilar daraxtlarni kuzatish orqali o`sha daraxtlar tanamining yo`honligi, shoxlarining yo`nalishi va rangi, ixchamligi va nozikligi, barglarining oltin tusga kirganligini ongli va estetik idrok etadilar.

O`quvchilarni yorqin ranglar, yaltiroq toza narsalar, ulardagi rang bo`laklarining qaytarilishi va almashinishi, simmetrik joylashuvi to`lqinlantiradi.

Bolalarda narsa va xodisalarni idrok etish borasidagi bu xususiyat asta-sekinlik bilan rivojlana boradi.

Manzara janridagi asarlar kishini qurshab olgan borliqdagi go`zalliklarni ochib beradi va tabiat timsoli orqali kishini his-tuyhulari va hayajonlarini oshiradi.

San`at asarlaridagi gullar, daraxtlar bulutlar haqidagi umumiy tushunchalarni shakllantirish bilan bir qatorda, ularning badiiy tomonlari, tevarak-atrofdagi narsalarning o`ziga xosligi, ranggi va shakllarning turli tumanligini ko`ra bilishga, ularning go`zalligidan zavqlana bilishga, tasviriy san`at asarlarida rassom tasvirlagan obrazli ma`noni, kayfiyatni jiddiy kuzata bilishga o`rgatib boriladi.

Men ilmiy ishimdagi ana shunday kichik hajmdagi ekspremental tadqiqotlarni o`zim pedagogik amaliyotda bo`lgan Urganch shaxridagi 38 sonli umumiy urta ta`lim maktabida bo`lib o`tgan pedagogik amaliyot davrida tadqiq qilib o`rganishga muvaffaq bo`ldim. Meni bu boradagi izlanishlarimga maktab ma`muriyati va ustozlarim yaqindan yordam berishdi.

3. BOB. TASVIRIY SAN`AT DARSLARIDA TABIIYAT MANZARASINI CHIZISH MASHG`ULOTLARINI TASHKIL ETISH

3.1 Tasviriy san`at mashhulotlrida o`quvchilarga estetik tarbiya berishda tabiiyat manzarasini ishlashning ahamiyati

O`qituvchilar uchun namoyish etiladigan narsalar va tasvirlar avvalo mashg`ulot mavzusi bilan bog`liq holda bo`lib, ular o`z tuzilishi, shakli, rangi, o`lchovlari bilan sodda, tushunarli, bolalarda his-hayajon uyhotadigan bo`lishligi maqsadga muvofiqdir. Eng muhimi, bunday materiallar o`quvchilarni o`ylashga majbur etadigan, bolalarni yangi tushunchalar bilan boyitadigan bo`lishligi muhim.

Namoyish etiladigan narsalar, ularning tasvirlari haqidagi ma`lumotlarni bolalarga og`zaki etkazishda ularning tahlili muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tahlil bevosita narsalarning tuzilishi, shakli, rangi, o`lchovlari, ularning mohiyati haqida savol-javob tarzida o`tkazilishi maqsadga muvofiqdir.

Tasviriy san`at o`quv predmeti o`z xarakteriga ko`ra estetik tarbiyaning asosini tashkil etuvchi estetik idrok, estetik zavq, estetik his-tuyg`u, estetik did, estetik mulohaza, estetik baholash, estetik ijod kabi sifatlarni o`stirishda katta rolg` o`ynaydi.

O`quvchilarni tabiatdagi narsalarning yorqin va yaltiroqligi, nafis va tozaligi, ular bo`laklarining qaytarilishi yoki almashinishi, simmetrik tarzda joylashuvi to`lqinlantiradi. Tabiatdagi gullarning rang va shakllarining turli-tuman bo`lishi, kapalak va ninachilar, qushlarning yengil parvozi, baxorgi va kuzgu manzaralarning chiroyi, manjuntolning suluvligi, maysazorlarning quyosh nuri ostida jilvalanishi, uy derazalarining kechg`i miltillab ko`rinishi hayajonlantiradi. Bolalarda bunday estetik his-tuyg`uning o`sishi, ularda predmet va hodisalar xususiyatlarini estetik baholash malakalarining shakllanishiga olib keladi. Bolalarning faoliyatlarida obrazli iboralarning, ya`ni “xushbichim”, “quvonchli”, “bayramdagidek” ishlatilishi ularda bog`liq va hodisalarni estetik idrok etish malakalari shakllanayotganligidan dalolat beradi.

O`quvchilarning estetik idrokini tarbiyalashda tabiatdagi rang gammalarining bolalar tomonidan idrok etilishiga alohida ehtibor beriladi. Bolalarni faqat rang nomlarini bilishlariga emas, balki ularni ko`ra bilishlariga, tevarak-atrofdagi chiroyli rang birikmalarini qidirib topishga ham o`rgatiladi.

O`qituvchi shoxcha va barg chiqargan daraxtlarni bolalarga ko`rsatish orqali yosh barglarni rangi och yashil va nozik ekanligini qayd etadi. Bahorgi yomg`irdan so`ng o`simlik barglarining tozaligini, ularni xuddi yuvib qo`ygandek ko`rinishi, ulardagi yomg`ir donalarining kumushdek yaltirab ko`rinishini takidlaydi. Kuz faslidagi tabiatda daraxt barglarining sariq va qizg`ish ranglarining oltin tusga kirganligini, to`kilgan barglarning shildirab “gaplashishi” obrazli ko`rinishda ifodalanadi. Bolalar o`z rasmlarida uy, daraxt, qushlar, hayvonlar, odamlar, transport vositalarini tasvirlaydilar. Bundan ular so`zsiz tasvirlanuvchilarning o`lchovlari, proportsiyalari, fakturasi, shakllari, rangiga duch keladilar va ularni rasmda kompozitsion jihatdan to`g`ri joylashtirishga harakat qiladilar. Bu esa ularning tuzilishidagi proportsionallik, mukammallik, maqsadga muvofiqlik haqida fikr yuritishga undaydi. Bolalar narsa va hayvonlarni shakl va rang jihatdan o`ziga jalb etadigan tomonlari, ularni qaysi tomondan chiroyli ko`rinishi, ularning yaxshi va foydali tomonlari nimadaligi haqida o`ylaydilar. O`quvchilar tabiatdagi narsa va hodisalar haqida o`ylar ekanlar, o`qituvchi o`z ehtiborini ularning tushunchasiga mos bo`lgan voqea va hodisalarning go`zalligi va mukammalligiga qaratadi. U go`zallik kechinmalari orqali bolalarni tevarak – atrofdagi hodisa va voqealarni baholay olishga o`rgatishga harakat qiladi, insonparvarlik, Vatanga muhabbat, mehnatga muhabbat his-tuyg`ularini uyg`otadi.

Tasviriy san`at bolalarni borliqni, hayotni bilishga yordam beradi. Ular narsa va hodisalar rasmini chizishga kirishishdan avval narsalarning tuzilishi, shakli, o`lchovlari, rangi, fazoviy holatlarini o`rganadilar va ularni o`z ishlarida tasvirlaydilar. Kuzatilayotgan jonli narsalarning hayoti haqida ham tasavvurga

ega bo`ladilar, natijada bolalarning dunyo haqidagi tasavvurlari chuqurlashadi va kengayadi, xotiralari rivojlanadi.

Manzaradagi uzoq va yaqinni tasvirlay bilish, savodli rasm chizishda muhim ahamiyatga ega. Planni tugri tasvirlash uchun avvalo manzarani sinchiklab kuzatish va uni tasvirlaganda uzoqdagi narsalarning yaqindagiga nisbatan kichik ko`rinishini hisobga olish, havo perspektivasi koidasiga rioya kilgan xolda ish tutish darkor. Havo perspektiva qoidasiga ko`ra uzoqdagi narsalar rang va ton jihatdan yaqindagilarga nisbatan xiraroq va och ko`rinadi. Daraxtlarning havo perspektivasi qoidalariga rioya qilib tasvirlanganligiga qaramasdan ular umumiy shaklining aniq saqlanib qolishiga erishmoq lozim.

Ukuvchi manzara rasmini chizish uchun tabiatning biror qismini tanlar ekan, avvalo ko`rish nuqtasi va ufq chizigi kaerdan utganligini qogoz betida aniqlab olishi kerak bo`ladi.

Naturada parallel chiziqlar ular qancha uzoqlikda joylashganiga qaramay kesishmaydi. Ular orasida masofa qoladi. Agar chiziqlar cheksiz uzoqlikka qarab ketsagina kesishadi.

Ko`chadagi simyogochlarni chizish uchun, ularni ustki va ostki nuqtalaridan chiziq o`tkazib, tutashuv nuqtasida birlashtiramiz.

Keyin birinchi simyogochning asosidan tugri chiziq o`tkazib, ikkinchi simyogochning o`rtasiga birlashtiramiz va uni davom qildirib keyingi simyogochning ustigacha olib boramiz. Xuddi shu printsip asosida odam figurasini gorizontal tekislikda turli masofada joylashtirish mumkin.

Ijodiy ishni kompozitsion hal qilishda ufq chizigi balandligini tanlash muhim omillardan biri hisoblanadi. Tasvirlanayoigan ob`ektni ulug`voriligini ko`rsatish uchun past ufq chizigida tasvirlash talab etadi. Bahzi bir holatlarga esa , masalan panoramani tasvirlash uchun yuqori nuqtadan ko`rish maqsadga muvofiq.

Havo perspektivasi - bu predmetlarning havo muhiti va masofa tahsirida rangi, shakli va yoruglik darajasining o`zgarishidir.

Yaqin masofada turgan predmetlarning detallari va fakturasi aniq ko`rinadi, uzoqlashgan sayin esa umumlashgan holda ko`rinadi. Yaqinda turgan predmetlarning konturi juda aniq, uzokroqdagilarniki esa yumshoqroq bo`lib ko`rinadi. Barcha yaqin predmetlar kontrast yorug` - soyaga va xajmga ega, uzoqdagilar esa nozik yorg-soyaga ega bo`lib, yalpoq shaklda ko`rinadi. Uzoqdagi predmetlarning rangi havo katlami tahsirida kam to`yinganroq bo`lib havo rang tahsiriga tushib - osmonrang, sutrang - ok, siyohrang tusga ega bo`ladi. Barcha yaqin predmetlar esa ko`prangli, uzoqdagilar bir rangli bo`lib ko`rinadi. Rassom bu barcha uzgarishlarni o`z kartinasida masofa va yoruglanganlikni berish jarayonida ehtiborga olishi lozim.

Tutun yoki tuman bilan tulgan havo muhiti rasmda fazoni va kompozitsiyada planni kursatishda yordam beradi. Ijodiy ishda albatta havo muhitidagi perspektiv uzgarishlarni ehtiborga olish lozim, chunki uzok plan oldingi planga nisbatan yorqinroq, predmetlarning konturi esa yoyilib, aniqlikni yo`qotadi. Bu ayniksa togda yoki urmonda yaqqol ko`zga tashlanadi. Bu xodisa havo perspektivasi deb ataladi.

Shunday qilib tekislikda rang va geometrik ko`rish yordamida masofani tasvirlash mumkin ekan.

Tabiat manzaralarining rangli tasvirini ishlashda havo va rang perpektivasiga alohida ehtibor berish lozim. Shuningdek manzara ishlayotganda tanlangan ob`ektni birinchi planda tasvirlashda uning uz atrofidagi buyumlarga nisbatan joylashish urnini hisobga olish kerak. Ikkinchi planda kursatilgan tasvirlarni ham chetda koldirib bulmaydi. Manzara ishlashda dastlab uning yorug va to`q joylari belgilab chikilishi kerak. Kolgan joylari esa shunga karab ishlanadi. Dastlabki paytlarida bulutli kunlarni ya`ni yoruglik nurlari hamisha tekis tushib turgan manzaralarini ishlash lozim. Osmonni oldin ham keyin ham ishlash mumkin. Lekin ranglarning kuchi osmon rangining kuchiga nisbatan olinadi. Osmon agar bir hil bulutsiz ko`rinishda bo`lsa, ishni osmondan boshlash kerak. Manzaradagi osmon tasvirini qogozni ho`l qilib ishlash lozim. Shunda havo perspektivasi yaxshi

seziladi. Quyoshli kunlarda esa soya joylarni engil tusda ifodalash lozim. Yirik hajmdagi ob`ektlarning manzarasini tasvirlashda dastlab xarakterli joylarni belgilab olish zarur. Sungra mayda detallarni ishlash mumkin.

Tasviriy san`at o`quv predmeti yoshlarning estetik tarbiyasida ahamiyatli bo`libgina qolmay balki, axloqiy tarbiyada ham salmoqli o`rinni egallaydi. Ayniqsa, tasviriy san`at darslari yoshlarda milliy g`urur va milliy istiqlool mafkurasini shakllantirishda, vatanparvarlik va baynalminal tarbiyada, do`stlik va o`zaro yordam g`oyalarini tashkil toptirishda katta kuchga ega. Tasviriy san`at ijodiy ishlar jarayonida o`z vazifalarini bajara borib bolalarga quvonch va qalb ko`tarinkiligini olib keladi, ularning badiiy ehtiyojlarini qondirish imkonini beradi.

Tasviriy sanat darslarida tabiyat manzaralarini ishlash o`quvchilarning qiziqishi va tabiyatga bo`lgan mexrini ularning dunyo qarshini ichki go`zallikini yanada go`zallashtiradi tabiyat daraxit gullar abi havo jamiki o`simliklar o`quvchiga estetik hozallikni o`zida namoyon etadi. O`quvchilarning estetik idrokini tarbiyalashda tabiatdagi rang gammalarining bolalar tomonidan idrok etilishiga alohida e`tibor beriladi. Bolalarni faqat rang nomlarini bilishlariga emas, balki ularni ko`ra bilishlariga, tevarak-atrofdagi chiroyli rang birikmalarini qidirib topishga ham o`rgatiladi.

Bunda : Kuzatuvchanlik, sinchkovlik, diqqat va xotirani o`stirish. Tabiatdagi go`zallikni ko`ra bilishga va qadrlay olishga o`rgatish. Kuzgi tabiat manzarasining o`ziga xos xususiyatlari va kuzgi ishlar bilan tanishtirish muhim o`rin tutadi.

Mashhulot asosan ikki yo`nalishda olib boriladi. Birinchisi, kuzgi tabiat manzarasining xarakterli xususiyatlarini estetik idrok etish, ikkinchisi kuzgi ishlarining o`ziga xos tomonlari bilan tanishtirish. Bu vazifalarni amalga oshirish maqsadida o`qituvchi shunday ob`ektni tanlashi lozimki, bu ob`ekt ham kuz, ham kuzgi ishlar uchun xarekterli ko`rinishda bo`lsin.

Dars o`quvchilarni maktab bohi yoki dalaga sayohatga olib chiqish va u erda amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishtirishdan boshlanadi. Sayohat

jarayonida o`qituvchi bolalar e'tiborini chiroyli kuz manzarasiga jalb etadi. Ularga kuz fasli va bu vaqtdagi o`zgarishlar haqida so`zlab beradi: "Bolalar, mana hozir kuz fasli. U niqoyatda chiroyli, chunki, kuzda havo soviy boshlaydi, natijada daraxtlarning barglari o`z rangini o`zgartiradi. Ba'zi barglar qizhish tusga kiradi. O`t-maysalar sarg`aygan bo`ladi, qisqasi, ular oltin rangga burkanadilar. Osmonda engil parcha-parcha bulutlar paydo bo`ladi. Ertalab kuzgi ekin va o`tlarning usti oppoq qirov bilan qoplanadi. Erga to`kilgan daraxt barglari oyoq ostida shitirlaydi. Oktabr oyida kech pishar mevalar terib olinadi va tokdagi shirin-shakar uzumlar uziladi. YOnhoq qoqiladi. Kechki kartoshka, sabzi, piyoz, lavlagi kabi savzavotlar yihishtirib olinadi. Bunday ishlarni amalga oshirishda o`quvchilar ota-onalariga, maktab bohida esa maktab jamoasiga yordam beradilar. Kuzda shahar va qishloqlarda ko`chat o`tkazish oyligi boshlanadi. Bu ishlarda ham bolalar kattalar bilan bir qatorda qatnashadilar. Kuzgi yihim-terim ishlari nihoyatda zavqlidir. Sayohat jarayonida o`qituvchi emotsional-estetik vaziyat hosil qilish maqsadida bolalarga kuz va kuzgi ishlar haqidagi she'rlardan namunalar o`qib beradi.

She'r o`qib bo`lingandan so`ng, tabiatning ko`rinishi bolalar bilan birgalikda tahlil qilinadi. Tahlil jarayonida kuzatilayotgan manzara yuzasidan bolalarga savollar beriladi. Bu savollar quyidagicha bo`lishi mumkin:

- kuzda tabiatda qanday o`zgarishlar ro`y beradi?
- qarshingizdagi manzarada qanday daraxt turlarini ko`ryapsiz?
- daraxtlarning o`lchovi bir xilmi?
- daraxtlarning shakli bir-biridan qanday farq qilib turibdi?
- e'tibor bering, daraxt shoxlarining yo`g`onligi bir xilmi?
- daraxtlarning tanasi va shox-shabbalarining tuzilishi qanday?
- osmonga ham razm soling, uning rangi qanday?
- osmondagi bulutlarning shakli yoki rangi qanday (bulutlar bor bo`lsa)?
- o`t va daraxtlarning rangida farq bormi?
- tabiatni kuzatish jarayonida yaxshi taassurot qoldirgan narsa nima?

Tabiatni kuzatish jarayonida bolalar ba'zi bir tabiiy materiallarni (uruhlar, barglar, mayda hashoratlar, ildizlar) kolleksiya uchun yoki tasviriy ishlar uchun yihishlari mumkin.

Kuzatilayotgan ob'ekt yuzasidan savol-javob tugagach, o'qituvchi suhbatga yakun yasab, bolalarning javoblarini aniqlashtiradi, kamchiliklarini to'ldiradi, xatolarini tuzatadi.

Agar dars sinfda o'tkaziladigan bo'lsa, o'qituvchi yuqorida nomlari qayd qilingan tasviriy san'at asarlarining reproduksiyalari, diapozitivlari, slaydlarini bolalarga ko'rsatib, sinfda o'quvchilar bilan birga tahlil qiladi. Lekin, shuni ham qayd qilish lozimki, dars sinfda qanchalik ilhor metodlar bilan olib borilmasin, baribir u aynan tabiat qo'yniga qilingan sayohatning o'rnini bosa olmaydi. Shuning uchun o'qituvchi darsni iloji boricha tabiat qo'ynida o'tkazishga harakat qilishi lozim.

Uyga bolalarni yashash joylaridagi bironta oltin rangga kirgan tabiat manzarasini kuzatish vazifa qilib topshiriladi.

3.2.Tabiyat manzarasini chizish mashhulotlarida qo'llaniladigan pedagogik tasvirlar va ulardan foydalanishning ahamiyati.

O'quvchilarning faolligini oshirishda maqsadga muvofiq yo'naltirilgan muammoli vazifalarni qo'llash katta yordam beradi. Tadqiqot natijalari va o'qituvchilarning ishlari shuni ko'rsatadiki, tasviriy san'atni o'qitishda o'zlashtirib bo'lingan bilim va malakalar ularni faqat tiklashgagini emas, balki yangi materiallarni chuqur anglashga, dunyoqarashga doir xulosalar chiqarishga xizmat qiladi.

Mantiqiy vazifalarni hal etish muammoli o'qitish bilan bo'lanadi. Muammoli vaziyatlar hosil qilish esa mantiqiy vazifalarni echishga sharoit yaratadi. Mantiqiy fikrlash predmet va hodislardagi eng muhim tomonlarni ajrata olish, ko'p dalillar ichidan tipiklarini ko'rsata olish, shakllangan tushunchalardan to'g'ri foydalanish, perspektiva, rangshunoslik, kompozitsiyaning asosiy qonun va qoidalariga rioya qilish imkonini beradi.

O'quvchilar ufq chizihi, chiziqli va havo perspektivasi, kesishish nuqtasi, buyumlar shaklining perspektiv qisqarishi haqida to'liq ilmiy tushunchalarga ega bo'lishlari kerak.

Dialektik tarzda fikr yuritish formal, mantiqiy fikrlash bilan bog'liq va unga doimo tayanishni nazarda tutadi. Mantiqiy fikrlash ob'ektiv borliq hodisalar mantiqini aks ettiradi. Qaysiki, unda hamma narsa o'zaro bog'liq va aloqadordir.

Atrof-muhitni to'g'ri tushunish uchun o'quvchilar hodisalarning sabablari va oqibatlarini ko'rib va bilib olishlari kerak. Bu esa dialektik fikrlash va xulosa chiqarishning shakllanishiga ko'mak beradi.

Bizningcha, o'qitishda o'quvchilarning mustaqil bilim olish jarayonini faollashtirishda va ijodiy fikrlashni rivojlantirishda bilimlarning muammoli bayon etish yo'lidan keng foydalanish va qisman izlanish va ilmiy tadqiqot metodlarini qo'llash lozim. O'qitish jarayonining samaradorligini oshirish bevosita o'quvchilarning faol psixik faoliyati (intellektuallik, emotsionallik)

bilan bog'liqdir. Bunda g'oyalarni chuqur tushunish kamlik qiladi. Lekin, shunday amaliy faoliyat tashkil qilish lozimki, unda hoyalarning ichki hissiyotlar tufayli to'la ongli ravishda harakat orqali yaqqol namoyon bo'lsin, mustahkamlansin. Bunga badiiy asarlarni ifodali o'qish, hikoya qilish, muzika tinglash, slaydlar ko'rsatish orqali erishish mumkin. Agar o'qituvchi voqea va hodisalarni ta'riflashda ularning go'zalligi, nafisligi, yoqimlilikiga alohida e'tibor bersa, talay natijalarga erishishi mumkin. Shuningdek, buyumlarning shakllari, o'lchovlaridagi proportsionallik, yoruhsoya nisbatlari va boshqalarni san'at asarlari orqali tahlil qilib berish lozim.

O'qitishni faollashtirish uchun o'quvchilarni muntazam va maqsadga muvofiq ravishda rahbatlantirish ham muhim ahamiyatga ega. Yaxshi ishlarni butun sinfga ko'rsatish yoki ularni maktab ko'rgazmasiga tavsiya etish, o'z kuchiga ishonitirish, ob'ektiv tanqid, turli xildagi yordamlar orqali o'quvchilarni rahbatlantirish mumkin.

O'qituvchining tajriba va bilimi kuchli o'quvchining mustaqil faoliyatiga qaratilgan bo'lishi kerak. Bolalarga ishora, yordamchi savol, ish yo'nalishi va kamchiliklarini ko'rsatish orqali yordam berish kerak.

Boshqa fanlarda bo'lganidek, tasviriy san'at darslarida ham materiallarni muntazam va ketma-ket bayon etish printsiplari muhim ahamiyatga ega. Bu printsiplari butun kurs davomida o'quv materiallarini mantiqan izchil joylashishini va har bir mavzu oldindan olingan bilim, malaka va tajribalarga suyanagan holda, yangi materiallarni o'tilganlar bilan bohlab bayon etilishi lozimligini nazarda tutadi.

Amaldagi tasviriy san'atdan davlat ta'lim standarti materiallarni bayon etishning faqat ma'lum ketma-ketlikda amalga oshirishnigina emas, balki uning muntazam bo'lishligini ham nazarda tutadi.

Ba'zan shunday hollar ham bo'ladiki, bunda o'qituvchilar bilim berishning bu muhim printsiplari to'g'ri baholay olmaydilar. O'quvchilarga berilayotgan vazifalarda bolalarning ilgari olgan bilim va malakalari hisobga olinmaydi. Natijada ular berilgan vazifani uddalay olmaydilar. Shuning uchun

ish rejalarini shunday tuzish kerakki, o`quvchilar har bir darsda yangidan yangi masalalarni hal etsinlar. Lekin, yangi materiallarni o`quvchilar o`tilgan materiallarni o`zlashtirib va mustahkamlab olganlaridan so`nggina berish lozimligini hisobga olish lozim.

Narsaning o`ziga qarab rasm chizish darslarini kompozitsiya darslari bilan, san'atshunoslik asoslari darslarini narsaning o`ziga qarab, kompozitsiya darslari bilan bemalol bohlash mumkin. Tasviriy san'at darslarining har bir turini o`zaro bog`liqlikda amalga oshirish orqali yaxshi natijalarga erishish mumkin. Bir o`quv fanining boshqa o`quv fanlari bilan aloqasi tasviriy san'atni o`qitishda yagona tizimni tashkil etish imkonini beradi. Ayrim hollarda shunday bo`ladiki, hamma mavzular ham o`tilgan materiallar bilan bohlanavermaydi. Bu o`qituvchidan o`quv materiallarini chuqur o`rganishni, natura uchun buyumlarni, suvratlar, reproduksiyalar, slaydlar va boshqa ko`rgazmalarni tanlashga jiddiy munosabatda bo`lishlikni talab etadi.

Masalaga bunday yondashilganda materiallarni bayon etishda parallelizm va qaytarilishlarga yo`l qo`yilmaydi. Masalan, pedagog taqvimiy yillik mavzularni rejalashtirganda o`quvchilarning rangshunoslikdan oladigan bilimlari quyidagicha ketma-ketlikda bo`lishi mumkin: asosiy va hosila ranglar, hosila ranglarni hosil qilish, ranglar kontrastligi, qonunlari, iliq va sovuq ranglar, atrof-muhitni ranglar ta'sirida o`zgarishi, murakkab hosila ranglar, rang va yoruhlik, buyumlar rangini uning foni bilan aloqasi, havo perspektivasi va boshqalar.

Tasviriy san'atni o`qitishda nazariy materiallarni amaliy materiallar bilan bog`liqligi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Nazariya bilan amaliyotning bog`liqligi bolalarning tasviriy faoliyatida, dars jarayonida, to`garak mashhulotlarida, jamoa ishlarida, ya'ni devoriy gazetalar chiqarish, albom bezash va shu kabilar orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, tasviriy san'at janrlari yuzasidan nazariy mashhulotlardan so`ng ana shu janrlarda amaliy mashhulotlarni o`tkazilishi, o`tilganlarni mustahkamlash, yangisini oson o`zlashtirish imkonini beradi.

O`qitishning o`quvchilar yoshiga va kuchiga mos bo`lishi printsiplari berilayotgan bilimlar yoki ular o`zlashtirilishi lozim bo`lgan materiallarni murakkablik darajasini bolalar yoshiga va kuchiga mos bo`lishini nazarda tutadi.

Kuzatishlar shuni ko`rsatadiki, ayrim o`qituvchilar 5-7 sinflarda ham to`rtburchak, doira shaklidagi naqshlar ishlashni davom ettiradilar. Bu topshiriqlar 3-4 sinflardagi vazifalardan deyarli farq qilmaydi. Bulardan tashqari, o`quvchilarga doskaga chizilgan tayyor naqshdan nusxa ko`chirish tavsiya etiladi. Bundan, ular beriladigan topshiriqlarning bolalarga oson bo`lishiligi nazarda tutadilar. Lekin, topshiriqlarning o`ta jo`n bo`lishi ham yaxshi emas, ular birinchidan bolalarning mustaqil fikrlashlarini susaytirsa, ikkinchi tomondan ulardagi rivojlanishni to`xtatadi.

Ma`lumki, o`quvchilar harakat va qobiliyat jihatidan bir-birlaridan farq qiladilar. Bu vaziyat o`qituvchidan o`quvchilar bilan yakkama-yakka ish olib borishni talab qiladi, ya`ni o`qituvchi bolalarni bilim va malakalari darajasini hisobga olgan holda ularga turlicha murakkablikdagi vazifalarni ishlab chiqadi, ularning tasviriy ishlarini to`hirlashga ba`zi nazariy va amaliy vazifalarni tushintirish maqsadida doskada rasm ishlab ko`rsatishiga to`g`ri keladi.

O`qitishning o`quvchilar yoshiga maosligi printsiplari qadimdan qo`llanib kelingan. Bunda, yaqindan uzoqqa, ma`lumdan noma`lumga, oddiydan murakkabga, osondan qiyinga, konkretlikdan abstraktlikka printsiplariga asoslaniladi. Pedagogikada bu printsiplari qadimdan tajribadan o`tganligi sababli o`qituvchini o`z faoliyatida shu yo`ldan borishi ko`zlangan maqsadga erishuviga asos bo`ladi. Kezi kelganda shuni ta`kidlab o`tish lozimki, hamma oson narsalar ham bolalarga tushunarli bo`lavermaydi va aksincha murakkab materiallar tushunarli bo`lishi ham mumkin. Bunda o`quvchilarning yoshi, pedagogik-psixologik xususiyati, bilim darajasi, tayyorgarligi, qobiliyati muhim rol o`ynaydi. Masalan, tasviriy san`atni o`qitishda yaqindan uzoqqa borish printsiplari ish tutish maqsadida o`qituvchi avval bolalarga yaqin bo`lgan o`zbek xalqining tabiati, turmushi, mehnatini tasvirlovchi O`zbekiston

rassomlari asarlarini, so`ngra O`rta Osiyo, Sharq, Evropa mamlakatlari san`atini o`rgatadi.

Yuqoridagi fikrlardan maktabda tasviriy san`atdan dars va darsdan tashqari ishlar jarayonida didaktik printsiplarga rioya qilishning nihoyatda muhimligini sezib olish qiyin emas. Didaktik printsiplar o`quvchilarning badiiy ta`limi, tarbiyasi va rivojlanishiga shart-sharoitlarni yaratadi.

Mavzu bo`yicha internet materiallari.

Как осень хороша! Как чисты небеса!
Как блещут и горят янтарные леса
В оттенках золотых, в багряных переливах!
Как солнце светится в волнах, на свежих нивах,
Как сердцу радостно раскрыться и дышать,
Любуясь кругом на Божью благодать.


П.А.Вяземский «Осень 1830»



Картина Золотая осень (1895, Государственная Третьяковская галерея, Москва) - самая популярная картина Левитана, посвящённая русской осени. Эта картина отличается яркостью, повышенной декоративностью. Ощущение жизненной полноты, свежести чувств в солнечный

осенний день создаётся во многом благодаря «бурлению» краски в изображении червонного золота листвы и смелому, энергичному письму синего неба, яркой зелени озимей и тёмной сини реки, на фоне которой вспыхивают покрасневшие листья боярышника. По своей повышенной чувственной напряжённости и сгущённости в восприятии природы эта картина представляется даже не вполне «левитановской», ибо подобный тип мироощущения был характерен для несколько более молодых мастеров - пейзажиста Станислава Жуковского или писателя Ивана Бунина. Характерно, что сам Левитан не вполне был удовлетворён этой по-своему прекрасной картиной, говорил, что она «грубая», и год спустя написал другой вариант с тем же названием (ныне в Третьяковской галерее), в котором запечатлел сходное по основному цветовому аккорду, но иное по настроению состояние природы, тихое, как бы «хрустальное» и при всей яркости осенних красок, как писал Чехов, «необыкновенно грустное, приветливое и красивое», когда хочется «Улететь вместе с журавлями».

Картина Бродского: Золотая осень



<<< Художники 20 века: Исаак Бродский Следующая картина Бродского >>>

Дополнительные требования

французских регуляторов в свете уроков Фукусимы станут известны к началу. ...

Уроки Фукусимы - в США

спорят о целесообразности установки фильтров в системах вентиляции. ...



Картины Леонида Афремова. О времени кто-то спросит – посмотришь и скажешь «восемь». Художник рисует осень. Поскольку и вправду – осень... Ты веришь часам и числам, не внемлешь народным массам, и прежним наполнен смыслом закон бутерброда с маслом. И можно, что хочешь делать, за ветви деревья дёргать, но к месяцу номер девять погода добавит дёготь. Но – осень. На самом деле. Читая её скрижали, ты думаешь – неужели их всё ещё не ужали. И ты наступаешь в лужи, бормочешь под нос «о Боже», а дальше всё будет хуже, но это случится позже. От Стрелки до Эрмитажа, надеждой себя не теша, идёшь ты одна, всё та же, и мысли твои всё те же. И ты познаёшь эпоху – ни пуха тебе /ни праха/, а дальше всё буде плохо, спасибо, что хоть не плаха. И ты наступаешь в лужи, себе показавшись младше, но дальше всё будет лучше, так, солнце моё, не плачь же. Прими без тоски и злости, что нет абсолютных истин, что кто-то кидает кости, а кто-то терзает кисти. Ты можешь всегда быть выше, заваренной этой каши, тем более, город с крыши и вправду намного краше... от
Татьяна Прусак /Кирпиченко

Картина Василия Поленова Золотая осень

Элла Гоник



Величава, прекрасна Россия,
И берёт сердце в сладостный плен
Небом чистым, высоким и синим,
Ни о чём не прося нас взамен.

И пришедшая в золоте осень,
И прозрачная, тихая даль,—
Всё, прощаясь, как будто бы просит,
Всё приносит и боль, и печаль.
И холодные струи речные,
И пустеющий облик полей,
И дожди, что пойдут, проливные,
И цветы те, что нету милей...
А пока осень балует светом,
Золотистым потоком листвы,
Продолжением тихого лета,
Погружением в мир красоты.

Василий Поленов "Золотая осень" 1894

Осень в горах. 1954 г. Гос.музей искусств Узбекской ССР.

Ташкент



В.К. Калнрозе (род. 1894), Латышская живопись

Калнрозе (настоящая фамилия – Розенберг) Валдис Карлович [р. 5(17).1.1894, Кул советский живописец-пейзажист, заслуженный деятель искусств Латвийской ССР (1963). Учился в Риге в Латвийской Академии художеств (1927–32) у В. Пурвита. В произведениях Калнрозе пространственная глубина в передаче пейзажного мотива (преимущественно рек и Балтийского побережья Латвии) сочетается со своеобразной декоративной манерой письма крупными пятнами цвета в изысканной серебристо-серой гамме. Произведения: «Даугава» (1935), «Осенний пейзаж» (1942), «Море» (1956), «В речном заливе» (1957) – все в Художественном музее Латвийской ССР, Рига; «Пасмурный день» (1962, Дирекция художественных музеев и выставок Латвийской ССР), «Пейзаж с рекой»

Xulosa

Xulosa qilib aytganda har bir rang bir olam ma'no anglatadi. "Nima bois tabiat yashil rangda yaratilgan? Buni sababi nimada? Agar tabiat qizil yoki sariq rangli bo'lsa, nima ma'noni anglatadi. "Nima bois tabiat yashil rangda yaratilgan? Kuz fasli tabiati kanday ma'noni anglatadi? Buni sababi nimada? Agar tabiat qizil yoki sariq rangli bo'lsa, nima ma'noni anglatgan bo'lar edi?

Shu kabi savollarga inson asrlar mobaynida javob izlab keladi. Lekin uning sir-sinoatini hech kim tagiga etolmagan.

Men xam shu savolga javob izlash maksadida shu mavzuni tanlaganman. Bu savolga javob topdimmi , yukmi bilaolmadim , lekin tabiat ranglarining nakadar mu'jizakor kuchga ega ekanligini his qildim.

Chunki ranglar inson kayfiyatini ko'tarar va salbiy yoki ijobiy ta'sir ko'rsatar ekan. Men kuz manzarasini tasvirlash orqali shu kabi savolga javob izlashga harakat qildim. Oz bo'lsada bu savolga javob topdim deb uylayman, chunki vatanimizning guzal tabiati shunday xilma-xil va rang-barang ekanki men bu manzaralarni kuzatib hayratda qoldim. Men yaratgan ushbu manzara asarim insonlarda ijobiy kayfiyat uyg'ota oladi deb o'ylayman.

Ushbu malakaviy- bitiruv ishimda tasviriy san'atning go'zal janrlaridan biri manzara janri haqida to'htalib o'tdim, natijada tasviriy san'atni insoniyatning ijtimoiy taraqqiyotiga qo'shgan hissasi , mamlakatimiz madaniyati, san'ati va uning hayotida tutgan o'rni, bugungi kun nuqtai - nazaridan qaralganda qanday ahamiyatga ega ekanligi xususida fikr yuritildi.

Malakaviy-bitiruv ishimning kirish qismidan mavzuning dolzarbligi, manbalar va adabiyotlar taxlili va malakaviy bitiruv ishimning maqsadi va vazifalari haqida gap boradi.

Keyingi qismlarida esa rangtasvir san'ati va rangtasvirda manzara janri, shuningdek, rassomlari ijodidan olgan tassurotlarim haqida ma'lumotlar berilgan. Shu bilan birga men bu bulimda rangtasvirda obraz, kolorit, fazo va kompozitsion ifodalilik va manzara ishlashning o'ziga xos xususiyatlariga urg'u berib o'tdim. Undan tashqari keyingi bo'limlarda mavzu ustidagi izlanishlarim va ish jarayoniga to'xtalib o'tdim.

Tasviriy san'atda mashg'ulotlarida o'quvchilarga tabiat manzarasini chizish orqali ranglarini ko'rish, ranglar orasidagi munosabatlarni va mutanosibliklarini ko'ra olish, tabiatdagi barcha narsalarni rang-barangligini turli vositalar yordamida tasvirlashga o'rgatish haqida ham qiziqarli ma'lumotlar berib o'tdim.

Malakaviy –bitiruv ishimda ushbu mavzu iloji boricha amaliy va nazariy qismida har tomonlama chuqur muloxaza etishga harakat qilindi.

Kelajakdagi o'qituvchilik faoliyatimda ham bu soxadagi ijodiy ishimni davom qildirib o'quvchilarni badiiy madaniyatini oshirishda bor kuchini ayamayman deb uylayman.

Adabiyotlar ro`yxati

1. I A Karimov “ Yuksak ma`naviyat yengilmas kuch” Toshkent., 2008
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Barkamol avlod Uzbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent; SHark, 1997.
3. Barkamol avlod orzusi.-Toshkent; SHark, 1998.
4. Umumiy o`rta tahlimning davlat tahlim standarti va o`quv dasturi. Tasviriy san`at; Toshkent, SHark, 1999.
5. Hasanov, R. Maktabda tasviriy san`at mashgulotlarini takomillashtirish yullari.; Toshkent, 1986.

6. Hasanov, R. Maktabda tasviriy san`atdan davlat tahlil standartlarini amaliyotga joriy etish. Toshkent; 2000.
7. O`zbekiston san`ati.(1991-2001 yillar)Toshkent. SHark; 2001
8. Hasanov, R. Maktabda tasviriy san`atni o`qitish metodikasi. Toshkent;Fan, 2004.
9. Alekseev S.S. «О колорите». М. 1974.
- 10.Smirnov G.V. «Живопись». М. 1975.
- 11.Beda G.V.«Живопись и её изобразительные средства»М. 1977.
- 12.Shoroxov Ye.V. "Основы композиции" Издательство "Просвещение", 1979 г.
- 13.Unkovskiy. A.A. «Живопись» «Вопросы колорита» М. 1980.
- 14.Terentg'ev A.E.. «Изображение животных и птиц средствами рисунка и живописи. М. 1980.
- 15.Beda G.V.. «Живопись» М. 1985.
- 16.X. Egamov «Bo`yoqlar bilan ishlash» T-1987 y.
- 17.M. Nabiyev, B. Azimova «Rasm chizishni urgatish metodikasi» T-1976 y.
- 18.E.V.Shoroxov "Основы композиции" М-1979.
- 19.M. Nabiyev "Rangshunoslik va rangtasvir texnologiyasi" T-1995
- 20.G.Abdurahmonov.«Rangtasvir va kompozitsiyadan metodik tavsiyalar» T. 1995.
- 21.N.V. Odnorlov «Материалы в изобразительном искусстве». Изд. «Просвещение» 1983 г.
- 22.H.B. Odnorlov «Материалы, инструменты и оборудование в изобразительном искусстве». Изд. «Просвещение» 1988 г.
- 23.S.D.Levin "Беседы с юным художником" М-1988.
- 24.N.N. Rostovtsev, S.E. Ignatg'ev, Ye.V. Shoroxov. "Рисунок. Живопись. Композиция" Moskva prosveshenie-1989.
- 25.C.M. Даниэль. "Искусство видеть" Искусство Ленинградское отд. 1990.

- 26.Энциклопедия художника. Издательство «Внешсигма» 2000 г.
- 27.П. Кощель. Энциклопедический словарь художника. М – 2000 г.
- 28.Н. М. Сокольникова «Изобразительное искусство и методика его преподавания в начальной школе». М. «ACADEMIA» - 1999 г.
- 29.Н.Н.Ростовцев "Методика преподавания изобразительного искусства в школе" М-2000.
- 30.Н.П.Бестчастнов и др. "Живопись" М-"Владос"-2001.
- 31.Шедевры русской живописи/Masterpieces of Russian Art.
Издательство: Белый. 2004.
- 32.Ибодуллаева Н. Рангшунослик. Урганч.,2004.
- 33.Ибодуллаева Н. Рангтасвир. Урганч.,2004.
- 34.Эгамов Н. Рангтасвир. Тошкент.,2005
35. Рамо-Поки Г."Техника росписи икон."Издательство: Феникс.2004.
коллекция современного искусства: живопись, графика, фотография -
art4. ru
- 36.ЖИВОПИСЬ.РУ - энциклопедия живописи. Картины,
репродукции, галереи. www.jivopis.ru/
- 37.The Pushkin Museum of Fine Arts. (Russia). Государственный Музей
Изобразительных Искусств им. Пушкина. **www.museum.ru**)